

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SOHIBOVA ZARNIGOR NUSRATILLOYEVNA

**O‘ZBEK PEYZAJ LIRIKASI: GENEZISI, TABIATI VA O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора
филологических наук (DSc)**

Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philological sciences (DSc)

Sohibova Zarnigor Nusratilloevna

О‘zbek peyzaj lirikasi: genezisi, tabiati va o‘ziga xos xususiyatlari 3

Сохибова Зарнигор Нусратилловна

Узбекская пейзажная лирика: генезис, природа и специфические
особенности..... 37

Sohibova Zarnigor Nusratilloevna

Uzbek landscape lyric poetry: genesis, nature and distinctive features..... 75

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 80

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SOHIBOVA ZARNIGOR NUSRATILLOYEVNA

**O‘ZBEK PEYZAJ LIRIKASI: GENEZISI, TABIATI VA O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Fan doktori ((DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/Fil699 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Quvvatova Dilrabo Xabibovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Xalova Maftuna Abdusalomovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yo‘lchiyev Qahhor Vahobovich.
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Pirnazarova Manzura Matniyozovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko‘chasi, 15-uy. Tel.: +99366 239-11-40, +99366 239-18-92; faks: +99366 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko‘chasi, 15-uy. Tel.: +99366 239-11-40, +99366 239-18-92).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U. Qobilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Razzoqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

M.R. Boboxonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida peyzaj lirikasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, obrazlilik darajasi, poetikasi, badiiy-estetik vazifalari singari masalalar doimiy e'tiborni tortib kelmoqda. Peyzaj lirikasini poetik tuzilishi, semantik qatlamlari, estetik tafakkur bilan bog'liqligi hamda ruhiy kechinmalarni ifodalash imkoniyatlari nuqtayi nazaridan baholash zamonaviy adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan sanaladi. Bunda tabiat obrazining lirik qahramon ruhiyati, hissiy kechinmalari, hayotiy tajribasi va individual dunyoqarashi bilan o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, peyzaj lirikasining poetik imkoniyatlari, unda estetik tafakkur, badiiy mushohada va ruhiy kechinmalarning ifodalanish xususiyatlari jahon adabiyotshunosligida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida peyzaj lirikasini qayta tahlil qilish zarurati uning badiiy taraqqiyotdagi o'rni va funksional imkoniyatlarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritish ehtiyojidan kelib chiqmoqda. Global ekologik muammolar, inson va tabiat munosabatlarining murakkablashuvi hamda ekologik tafakkurning badiiy ong'dagi aksini tadqiq etish ekopoetika va ekokritika yo'nalishlarining ustuvor masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy lirikada peyzaj motivlarining yangi poetik talqinlari, tabiat obrazining falsafiy-estetik mazmun kasb etishi, makon va vaqt kategoriyalarining lirik tafakkur bilan uyg'unlashuvi alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Shu ma'noda, peyzaj lirikasining genezisi, taraqqiyot bosqichlari, tasniflash tamoyillari, topografik she'riyatning poetik imkoniyatlari hamda fasllar, kun va tun tasvirining badiiy-estetik funksiyalarini tizimli tadqiq etish zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotshunosligida peyzaj lirikasi, uning folklor, mumtoz adabiyotdagi genezisi badiiy tadriji, ramziy-timsoliy ma'nolarini muayyan ijodkorlar asarlari asosida yoritishga katta e'tibor berilmoqda. "Adabiyot – jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishda, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega"¹dir. Shu ma'noda zamonaviy o'zbek adabiyotida peyzaj lirikasiga oid she'rlarni tadqiq etish, borliq manzarasi tasvir etilgan asarlardagi ijtimoiy mazmun, lirik qahramon ruhiyati, peyzaj mohiyatini ochuvchi obrazlar mazmuni, an'ana va novatorlik xususiyatlarini o'rganishni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158 son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida", 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 13 сентябрдаги ПК-3271-сон «Китоб махсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисидаги» қарори // Халқ сўзи. – 2017 йил 14 сентябрь.

tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 18-apreldagi PQ-2894-son "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risida", 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarorlari, hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.² Jahon adabiyotshunosligida peyzaj lirikasi, uning estetik tafakkur, ruhiy kechinmalar va insonning tabiat bilan munosabatlarini ifoda etuvchi badiiy makon sifatida shakllanishi hamda taraqqiyoti bilan bog'liq masalalar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, University of Sheffield, Bangor University, University of Gloucestershire (Buyuk Britaniya), University of Connecticut (AQSh), University of Bologna (Italiya), Universit t zu K ln (Germaniya), Xihua University (Xitoy), shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Qo'qon davlat universiteti hamda Buxoro davlat universiteti (O'zbekiston)da ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligidagi mazkur tadqiqotlar natijasida mavzuga aloqador bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: poeziyada pastoral janr, tabiiy manzaraning "oqilona" idealizatsiya qilinishi va uning estetik funksiyalari ochib berilgan (University of Sheffield, Buyuk Britaniya), ekopoetika doirasida inson va tabiat aloqalari, turli identitetlar hamda ekologik ongning she'riy obrazlarda qayta konstruksiya qilinishi asoslangan (Bangor University, Buyuk Britaniya), ekologik ongni ifodalovchi poetik matnlarning badiiy xususiyatlari va poetik imkoniyatlari tadqiq qilingan (University of Gloucestershire, Buyuk Britaniya), ekokritika metodologiyasi asosida badiiy matnning ekologik-estetik talqini masalalari ishlab chiqilgan (Xihua University, Xitoy), ekologik estetika va tabiat tasvirining estetik qimmati bilan bog'liq nazariy

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi www.academia.edu, www.researchgate.net, www.google.scholar.com, cheloveknauka.com, dslib.net, www.lang.ox.ac.uk, www.cam.ac.uk, www.nyu.edu, www.ling.upenn.edu, www.linguistics.ucla.edu, www.newcastle.edu.au, www.navoiy-uni.uz, www.unileipzig.de, www.helsinki.fi, www.english.bnu.edu.cn, www.linguanet.ru, www.sgu.ru, www.pgu.ru, www.ssau.ru, www.vsu.ru, www.pgu.ru, www.tsutmb.ru, www.bsua.edu.az, www.nuu.uz, www.tsuull.uz, www.tuit.uz, www.buxdu.uz, www.adu.uz, www.fdu.uz. va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

qarashlar ilgari surilgan (University of Connecticut, AQSh; Universität zu Köln, Germaniya), peyzaj lirikasining poetik tuzilishi, obrazlar tizimi va estetik-semantik qatlamlari bilan bogʻliq ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan (University of Bologna, Italiya).

Bugungi kunda jahon adabiyotshunosligida peyzaj lirikasi va ekopoetik tafakkur masalalari yuzasidan, jumladan, quyidagi ustuvor yoʻnalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: inson va tabiat munosabatlarining ekologik, falsafiy va estetik jihatlarini badiiy matn poetikasi bilan bogʻliq holda ochib berish, peyzaj lirikasining genezisi, taraqqiyot bosqichlari, poetik xususiyatlari hamda tabiat obrazining milliy badiiy tafakkurdagi oʻrnini aniqlash, peyzaj lirikasini tarixiy taraqqiyot, poetik tizim va ekopoetik yondashuvlar birligida kompleks asoslash.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Peyzaj hodisasi oʻzining murakkabligi va serqirraliligi tufayli falsafa, adabiyotshunoslik, sanʼatshunoslik va estetika kabi fanlararo rakurslarda chuqur ilmiy-nazariy tadqiq obyekti boʻlib kelgan³. Badiiy ijodda borliq va tabiat manzarasi tasvirining ijtimoiy-falsafiy asoslarini oʻrganish Amerika adabiyotshunosligida muhim tadqiqotlarga sabab boʻlgan: Cherill Glotfelti va Harold Fromm, Skot Slavik, Lavrense Buyel, Greg Garrard, Leo Marks⁴ kabi olimlar ushbu mavzu boʻyicha ekotankid (Ecocriticism) deb nomlangan yangi ilmiy yoʻnalishning paydo boʻlishiga va rivojlanishiga bevosita hissa qoʻshganlar. Angliya va Germaniya adabiyotshunosligida sheʼriyat va tabiat tasviri oʻrtasidagi aloqadorlik ekokritika hamda estetika nuqtayi nazaridan koʻplab tadqiqotlarda tekshirilgan. Jumladan, Villiam Empson, Raymond Villiams, Jonatan Beyt, Terri Gifford, Karl Kroeber, Mary Midgley, Peter Berri⁵ kabi olimlar bu yoʻnalishdagi asosiy nazariy va metodologik tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Shuningdek, ingliz va nemis sheʼriyatida tabiat tasvirining oʻziga xosligi, romantizm davri va zamonaviy sheʼriyatda peyzajning madaniy, ekologik va estetik funksiyalarini chuqur oʻrganish borasida Nikola Tomas, Sam Solnik,

³ Fransis Bekon. URL:<https://www.gutenberg.org/files/5500/5500-h/5500-h.htm> (murojaat qilingan sana:12.03.2024) Book II, Section IV., Boileau, Nicolas. L'Art poétique. – Paris: Hachette, 1887. –B. 36.; Immanuel Kant. URL:<https://oyina.uz/uz/article/544>, URL:<https://fasih.uz/posts/kantning-ulugvorlik-nazariyasi>; (murojaat qilingan sana:12.03.2024) Gegel. Estetika. Rus tilidan Mahmud Abdullayev tarjimai // “Sharq yulduzi” jurnali, 2014-yil 1-son, 108–114-betlar., Gegel. Estetika. // “Sharq yulduzi” jurnali, 2014-yil 2-son, 132–139-betlar.

⁴ The Ecocriticism Reader: Landmarks in Literary Ecology / Edited by Cheryll Glotfelty and Harold Fromm. – Georgia: by the University of Georgia Press Athens, 1996. – 456 p., Scott Slovic. Seeking Awareness in American Nature Writing: Henry Thoreau, Annie Dillard, Edward Abbey, Wendell Berry, Barry Lopez. – Salt Lake City, Utah: University of Utah Press, 1992. – 220 p. URL:https://archive.org/details/seekingawareness00slov_0/mode/2up, (murojaat qilingan sana:20.03.2024) Lawrence Buell. The Environmental Imagination: Thoreau, Nature Writing, and the Formation of American Culture. – London: Harvard University Press, 1995. – 604 p., Garrard Greg. *Ecocriticism*. – New York: Routledge, 2004. – 220 p., Marx Leo. The Machine in the Garden: Technology and the Pastoral Ideal in America. – New York: Oxford University Press, 1964. – 416 p.,

⁵ Empson William. Some Versions of Pastoral. – London: Penguin Books, 1935. – 298 p., Williams Raymond. The Country and the City. – London: Chatto & Windus, 1975. – 336 p., Bate Jonathan. Romantic Ecology: Wordsworth and the Environmental Tradition. – London: Routledge, 1991. – 144 p., Bate Jonathan. The Song of the Earth. – London: Picador, 2001. – 200 p. URL:<https://www.amazon.com/Song-Earth-Jonathan-Bate/dp/0330372696?asin=0674008189&revisionId=&format=4&depth=1>, (murojaat qilingan sana:20.03.2024), Gifford Terry. Green Voices: Understanding Contemporary Nature Poetry. – Manchester: Manchester University Press, 1995. –198p., Kroeber Karl. Ecological Literary Criticism: Romantic Imagining and the Biology of Mind. – New York: Columbia University Press, 1994. – 204 p., Midgley Mary. *Science and Poetry*. – London: Routledge, 2002. – 328 p., Barry Peter. Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Theory. – Manchester: Manchester University Press, 2002. – 340 p.

Susanna Lidstrom, Regina Sachers, Charles Peake ning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi⁶. Peyzaj muhim adabiy va estetik hodisa sifatida rus adabiyotshunosligi va madaniyatshunosligida⁷, tojik adabiyotshunosligida⁸ ham atroflicha tadqiq qilingan. Soʻng yillarda turk ilmiy jamoatchiligida xususan, N.Buyukkaya, H.Degʻirmanchi, S.Igʻnechiogʻlu, A.Pulat, M.Kara, M.Oʻzdemir, K.D.Vannig, A.Sariaslan, S.Shahin, G.Tunch, M.Yildiz kabi olimlarning maqola va tadqiqotlarida peyzajga yangicha qarashlar mavjud⁹.

Oʻzbek adabiyotshunosligida mumtoz adabiyot va yangi oʻzbek sheʼriyati tadqiqiga bagʻishlangan ishlarda peyzaj lirikasi tasviriga muayyan munosabat bildirilgan. Jumladan, N.Mallayev, Gʻ.Karimov, S.Dolimov, Y.Isʼhoqov, H.Qayumov, F.Nabiyev, A.Erkinov, N.Komilov, I.Haqqulov, T.Matyoqubova, L.Mirzohidova, G.Boltayeva¹⁰ kabi olimlarning ishlarida mumtoz shoirlar asarlari

⁶ Nicola Thomas. Space, Place and Poetry in English and German 1960-1975. – New York: Palgrave Macmillan, 2018. 208 p., Nicola Thomas. The New German Nature Lyric. Humanities, vol. 9, no. 2, 4 Jun. 2020, Art. 50. URL:<https://www.mdpi.com/2076-0787/9/2/50?utm> (murojaat qilingan sana:04.05.2024), Solnick Sam. Poetry and the Anthropocene: Ecology, Biology and Technology in Contemporary British and Irish Poetry. 1st ed. – Routledge: Routledge eBooks, 2016. – 238 p., Susanna Lidström. Nature, Environment and Poetry: Ecocriticism and the Poetics of Seamus Heaney and Ted Hughes. – London: Routledge, 2015. – 172 p., Sachers Regina. Goethe's Poetry and the Philosophy of Nature: Gott Und Welt 1798–1827. 1st ed. – London: Routledge, 2015. – 282 p., Charles Peake. Poetry of the landscape and the night: two eighteenth-century traditions. – London: Edward Arnold, 1967. – 192 p.

⁷ М.Н.Эпштейн. «Природа, мир, тайник вселенной...»: Система пейзажных образов в русской поэзии: Науч.-попул. – М.: Высш. шк., 1990. – 303с., Абузова Наталья Юрьевна. Типология пейзажа в лирике Ф.И.Тютчева. Диссертации кандидат филологических наук. – Самара, 2000. – 188 с., Шапурина Анжелика Владимировна. Лирика природы Ф.И.Тютчева: Философско-поэтические созерцания. Диссертации кандидат филологических наук. – Москва, 2002. – 178 с., Нагорнова Екатерина Валерьевна. Пейзаж в произведениях Мэри Монтегю. Диссертации кандидат филологических наук. – Москва, 2003. – 154 с., Цзинь Тяньхао. Пейзаж и тема природы в творчестве А.П. Чехова. Автореферат диссертации кандидат филологических наук – Москва, 2022. 28 с., Дьякова Тамара Александровна. Историко-культурная семантика и поэтика пейзажа. Диссертации доктор культурологии. – Москва, 2005. – 300 с., Шипельский Максим Игоревич. Поэтика станкового пейзажа. Культурологический анализ. Диссертации доктор культурологии. – Krasnodar, 2009. – 275 с.

⁸ Мирзохасанов Лаълджуба. Пейзаж в лирике персидско-таджикской литературы X-XI веков. Диссертации кандидат филологических наук. – Душанбе, 2003. 187 с. Субхонкулова Наргис Акбаралиевна. Художественное отражение природы в таджикской прозе XX - рубежа XXI вв. Автореферат диссертации кандидат филологических наук – Душанбе, 2003. 28 с.

⁹ Büyükkaya, N. (t.y.). Âşık Veysel şiirlerinde tabiat metaforu [Nature metaphor in Âşık Veysel's poems]. Academia.edu.URL: <https://www.academia.edu/127459832/> (murojaat qilingan sana:24.05.2024); Değirmenci, H. (2022). Halil Soyuer'in şiirlerinde doğa farkındalığı: Ekoeleştirici ışığında bir okuma. Erzurum Teknik Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi, 6(2), 422–440. URL:<https://doi.org/10.47170/eeder.1033216>; (murojaat qilingan sana:24.05.2024) İgnecioglu, S., & Pulat, A. (2023). Ali Püsküllüoğlu'nun şiirlerinde doğa konusu. International Journal of Language, Literature and Translation Studies, 6(2), 24–38. URL:<https://doi.org/10.29228/ijlet.79123> (murojaat qilingan sana:24.05.2024); Kara, M. (2023). Anadolu sahası Türk halk şiirinde turna: Derdiçok örneği. Mahalle Mektebi Dergisi, (51), 37–50. URL:<https://dergipark.org.tr/tr/pub/mahder/issue/79894/1332474>; (murojaat qilingan sana:02.06.2024) Özdemir, M., & Wannig, K. D. (2007). Geleneksel Türk halk şiirinde doğa. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi, (33), 99–112. URL:<https://dergipark.org.tr/tr/pub/ataunitaer/issue/2851/39425> (murojaat qilingan sana:24.05.2024); Sariaslan, A. (2022). Yahya Kemal'in şiirlerinde tabiat anlayışı. ResearchGate. URL:<https://www.researchgate.net/publication/361759040> (murojaat qilingan sana:21.06.2024); Şahin, S. (2021). Oktay Rifat'ın şiirlerinde doğa farkındalığı: Çevreci eleştiri ışığında bir okuma. Yüksek Lisans Tezi, Hacettepe Üniversitesi. URL:<https://openaccess.hacettepe.edu.tr/xmlui/bitstream/handle/11655/1429/448eb98f-9e74-4602-9905-eaad080f8007.pdf> (murojaat qilingan sana:04.07.2024); Tunç, G. (2020). Yeni Türk şiirinde dağ (1860–1908) [Yüksek lisans tezi, Van Yüzüncü Yıl Üniversitesi]. YÖK Ulusal Tez Merkezi. URL: <https://acikbilim.yok.gov.tr/handle/20.500.12812/439807> (murojaat qilingan sana:15.07.2024) Yıldız, M. (2021). Recâizâde Mahmut Ekrem'in bestelenmiş şiirlerinde tabiat. İdil – Sanat ve Dil Dergisi, 10(79), 1653–1670. URL:<https://idildergisi.com/makale/pdf/1674644742.pdf> (murojaat qilingan sana:17.07.2024)

¹⁰ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1965. – 739 б., Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик. I жилд. Девон. –Т.: F.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 392 б., Исҳоқов Ё. Навоий

tahlili davomida ayrim ilmiy qarashlar ilgari surilgan. B.Qosimov, M.Qo'shjonov, S.Mamajonov, O.Sharafiddinov, N.Rahimjonov, M.Farmonova, N.Yo'ldoshev, R.Barakayev, B.Ashurov, N.Jabborov, D.Quronov, Y.Qosim, A.Ulug'ov, U.Hamdani, O.Karimov, D.Tajibayeva, M.Davronova, Sh.Hojiyeva, A.Zaripov¹¹ singari olimlarning tadqiqot hamda adabiyotshunoslikka oid darslik va lug'atlarida zamonaviy she'riyatda peyzaj lirikasi, xususan, yil fasllari talqiniga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko'rsatilgan bir qator o'zbek va jahon adabiyotshunoslarining tadqiqotlari e'tiborga olindi, ularga munosabat bildirildi. Tadqiqotimizda boshqa ilmiy ishlardan farqli o'laroq, zamonaviy o'zbek she'riyatida peyzaj lirikasi tabiat va borliq tasviri berilgan asarlar yaxlit badiiy tizim sifatida tadqiq qilindi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari muvofiq "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" (2023-2027 y.y.) mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek peyzaj lirikasining genezisi, nazariy asoslari, tarixiy shakllanish bosqichlari hamda milliy she'riyatimizdagi badiiy-estetik vazifalarini yaxlit ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

peyzaj lirikasining nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, o'zbek xalq lirikasi va mumtoz adabiyotida peyzaj tasvirining shakllanish bosqichlarini yoritish, undagi badiiy-estetik vazifalar va ramziy ma'nolarni aniqlash;

поэтики. – Т.: Фан, 1983. – 167 б., Каюмов Хасанбай. Художественные изображения природы и человека в узбекской советской литературе. Автореф. канд.дисс. – Т., 1983., Набиев Файзулла. Духовный мир героя и изображение природы в творчестве Алишера Навои (на материале поэм "Фархад и Ширин", "Лейли и Меджнун"). Канд. дисс. – Т., 1990., Эркинов Афтондил. Навоийнинг пейзаж яратиш махорати. ("Садди Искандарий" дostonи мисолида) Канд. дисс. – Т., 1990., Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т.: Маънавият, 2005. – 320 б., Ҳаққулов И. Занжирбанд шеър қошида. – Т.: Юлдузча, 1989. – 224 б., Ҳаққул И. Ҳаёт, адабиёт ва абадият. – Т.: Тафаккур, 2019. – 320 б., Матёкубова Т. Поэтик идрок ва махорат. – Т.: Фан ва технология, 2011. – 172 б., Мирзохидова Л. XI-XII асрлар туркий адабиётида мажозий тасвир бадиияти: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2018. – 50 б., Boltayeva G. Alisher Navoiy "Fusuli arbaa" qasidalar turkumining manbalari va g'oyaviy-badiiy tahlili. Monografiya. – Navoiy, 2020. – 100 б.

¹¹ Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. Адабий-танқидий мақолалар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 464 б., Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. – Т.: Ёш гвардия, 1983. – 216 б., Фармонова Мунаввар. 80-йиллар ўзбек лирикасида инсон ва табиат концепцияси. Канд. дисс. – Т., 1992; Йўлдошев Н. Чўлпон шеъриятида пейзаж. Филология фанлари номзоди диссертацияси. – Т., 1995., Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Т.: Фан, 1979. – 192 б., Раҳимжонов Н. Асқад Мухтор поэтикаси: Рисола. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2003. – 72 б., Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Т.: Фан, 2007. – 260 б., Раҳимжонов Н. Қалбнинг тўрт фасли. – Тошкент: Машхур пресс, 2019. – 192 б., Қосимов Б., Юсупов Ш. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004. – 464 б., Қўшжонов М., Мели Сувон. Абдулла Орипов. – Т.: Маънавият, 2000. – 136 б., Баракаев Р., Ашуров Б. Турсунбой Адашбоев феноменига бир назар. – Т.: Академнашр, 2014. – 158 б., Ашуров Б. Турсунбой Адашбоевнинг поэтик махорати. – Т., 2009. – 136 б., Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърлят. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 304 б., Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Т.: Akademnashr, 2018. – 376 б., Тажибаева Д. XX асрнинг сўнги чораги ўзбек шеърлятида поэтик услуб муаммолари: Фил.фан. бўй.фал. док.дисс. – Фарғона, 2018. – 146 б., Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеърлятида индивидуал услуб поэтикаси: Фил.фан.док. дисс.автореферати. – Самарқанд, 2019. – 66 б., Ҳожиёва Ш. Чўлпон ва миллий шеърлятнинг янгиланиши. – Т.: Мухаррир, 2018. – 152 б., Zaripov A. Abdulla Oripovning peyzaj lirikasi badiiyati. Filol.f.f.d. (PhD) diss. – Т.: 2024. – 146 б.

peyzajning badiiy matndagi funksional imkoniyatlarini aniqlash, unda xronotop va topografik she'riyatning o'zaro bog'liqligini tahlil etish, vaqt va makonning poetik ifodasi, fasllar hamda kun–tun dialektikasining badiiy ahamiyatini ochib berish;

o'zbek modern she'riyati va bolalar poeziyasida peyzaj obrazining yangicha talqinlarini o'rganish, bola shaxsining estetik tarbiyasida hamda yangilanayotgan tafakkur ifodasida uning rolini asoslash;

peyzaj lirikasida tabiat va inson munosabatlarining falsafiy mohiyatini tadqiq etish, shoir dunyoqarashi, ruhiy kechinmalar va ijtimoiy-siyosiy g'oyalar bilan bog'liqligini tahlil qilish;

ekopoetik yondashuv asosida o'zbek peyzaj lirikasida ekologik tafakkur va zamonaviy ekologik muammolarning badiiy ifodasini yoritish, milliy poetik tafakkurdagi tabiat konsepsiyasining zamon ruhiga mos evolyutsiyasini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek mumtoz adabiyoti, yangi o'zbek she'riyati, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalaridagi tabiat manzaralari aks etgan she'rlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini zamonaviy o'zbek she'riyatida peyzaj lirikasining genezisi, taraqqiyoti va o'ziga xos xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tipologik, analitik, germeneytik, psixologik va kompleks tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek peyzaj lirikasining genezisi xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotda shakllanganligi, uning markazida tabiat obrazi turishi, hayotsevarlikka ilhomlantiruvchi estetik va shuuriy manzaralar bilan bog'liq psixologik funksiyalarni bajarishi, tabiat va inson munosabatlarining badiiy, falsafiy va ekologik jihatdan integratsiyalashuvi xalq qo'shiqlari, mumtoz lirika namunalari, Hamid Olimjon, Abdulla Oripovlarning she'rlari negizida asoslangan;

tabiat tasviri bolalar adabiyotida *bilish, tarbiyaviy-axloqiy* va *hissiy-estetik* qiymat kasb etishi, modern she'riyatda esa *falsafiy-ramziy* kechinmalarni ifodalashi, ijtimoiy-siyosiy lirikada esa allegorik tarzda davr bilan bog'liq muayyan g'oyani tashishi aniqlanib, uning vatan tasviri bilan bog'liq milliy topografik xususiyati, inson ruhiy olamini ifodalashdagi *shodlik va umid, g'amginlik va sog'inch, isyonkorlik va kurash* kabi psixologik fon sifatidagi imkoniyatlari isbotlangan;

Orol timsoli Matnazar Abdulhakim, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Faxriyor va Eshqobil Shukur kabi shoirlar ijodida *ayol, ona* yoki o'limga mahkum qilingan *inson* kabi obrazlar orqali ekopoetik yondashuvda tasvirlanib, *insoniyat, onalik va kelajak qadriyatlari* inqirozi singari ma'nolarni anglatishi; *“ko'k tobut”, “ko'kaylari kesilgan ayol”, “halok bo'layotgan Alpomish”, “zaharlangan daryo”* singari paradoksal birliklar befarqlikning axloqiy va ma'naviy javobgarligini ifodalashi aniqlangan;

o'zbek modern she'riyatida tabiat manzarasi inson ongining ziddiyatli holatlarini ochib beruvchi poetik hodisa ekanligi, peyzaj obrazlari ramziylik, fragmentarlik va absurd kabi xususiyatlarni ifodalashi, borliqni subyektiv idrok etish va *“ruhiy landshaft”*ni ifoda etishi, she'rxon tafakkurida *individualizm*,

yolg'izlik, ekzistensial tashvish, hayotni sevish, borliqni asrash, keljikka javobgarlik kabi hissiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishi ochib berilgan;

yangi o'zbek she'riyatida peyzaj inson va tabiat o'rtasidagi murakkab falsafiy, ijtimoiy hamda ekologik munosabatlarni yorituvchi badiiy vositaga aylanganligi, ekopoetik yondashuv orqali tabiat estetik go'zallik manbayi, insoniy mas'uliyat, ma'naviy uyg'oqlik va ogohlik timsoli sifatida talqin etilganligi, bunda ekologik muvozanat, insonning tabiatga befarqligi, ijtimoiy zo'ravonlik va ma'naviy tanazzul bilan bog'liq muammolar markaziy o'ringa chiqqanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

lirik manzara o'zbek adabiy tafakkurida nafaqat estetik obraz, balki shaxsning ichki "men"ini ifoda etuvchi semantik maydon sifatida talqin qilindi; bu yondashuv orqali shoir ruhiyati bilan tabiat obrazlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyatlari aniqlangan;

peyzaj lirikasining milliy poetik tipologiyasi shakllantirilib, o'zbek she'riyatida tabiat tasviri orqali ijtimoiy, axloqiy va falsafiy mazmunlarni ifodalash qonuniyatlari ochib berilgan;

topografik she'riyatda manzara detali madaniy xotira vazifasini bajarishi joy nomlari, fasllar va tabiat hodisalari orqali milliy mentalitetning tarixiy qatlamlari ochiq qilinishi, lirikada "fasllar" va "kun-tun" dialektikasi ruhiy ritm vazifasini bajarib, inson hayotining davriyligi, ruhiy o'zgarish va yangilanish jarayonlarini poetik shaklda ifodalashi yoritilgan;

bolalar she'riyatida tabiatni tasvirlash orqali ularda hayotga mehr, go'zallikni his etish, fikrlash va tasavvur qilish ko'nikmalari shakllantirilganligi, peyzaj obrazlari bola dunyoqarashining ifodaviy vositasiga aylanganligi oydinlashtirilgan;

yangi o'zbek she'riyatida peyzaj obrazlari orqali global ekologik hodisalar badiiy-falsafiy darajada ifodalanib, peyzaj lirikasida estetik va axloqiy qadriyatlar sintezi yuzaga kelganligi, ekopoetik tafakkur, ya'ni "tabiatni his etish orqali insonni anglash" tamoyili shakllanganligi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar qiyosiy, qiyosiy-tipologik, germeneytik va analitik metodlar vositasida asoslanganligi, mavzu yuzasidan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy nashrlarda e'lon qilingan maqolalarda keltirilgan nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy xulosalardan zamonaviy she'riyatining taraqqiyot tamoyillarini tahlil etishda, o'zbek adabiyotshunosligining rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishda, she'rshunoslik yo'nalishidagi izlanishlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan "O'zbek adabiyoti tarixi", "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi", "Hozirgi adabiy jarayon", "Badiiy tahlil asoslari" fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda; adabiyotshunoslik lug'atlarini takomillashtirishda; antologiyalar tuzishda, shuningdek, umumta'lim maktablarida adabiyot darslarini o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek peyzaj lirikasi genezisi, tabiati va o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘ishlangan dissertatsiya natijalaridan:

o‘zbek peyzaj lirikasining genezisi xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotda shakllanganligi, markazida tabiat obrazi turishi, hayotsevarlikka ilhomlantiruvchi estetik va shuuriy manzaralar bilan bog‘liq psixologik funksiyalarni bajarishi, tabiat va inson munosabatlarining badiiy, falsafiy va ekologik jihatdan integratsiyalashuvi xalq qo‘shiqlari, mumtoz lirika namunalari, Hamid Olimjon, Abdulla Oripovlarning she‘rlari negizida asoslangan xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 29-dekabrda 04/1-6365-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha yangi nazariy ma’lumotlar bilan boyigan;

tabiat tasviri balalar adabiyotida *bilish, tarbiyaviy-axloqiy* va *hissiy-estetik* qiymat kasb etishi, modern she‘riyatda esa *falsafiy-ramziy* kechinmalarni ifodalashi, ijtimoiy-siyosiy lirikada esa allegorik tarzda davr bilan bog‘liq muayyan g‘oyani tashishi aniqlanib, uning vatan tasviri bilan bog‘liq milliy topografik xususiyati, inson ruhiy olamini ifodalashdagi *shodlik va umid, g‘amginlik va sog‘inch, isyonkorlik va kurash* kabi psixologik fon sifatidagi imkoniyatlari borasidagi ilmiy-nazariy qarashlardan Buxoro davlat universiteti hamda Germaniya akademik almashinuv xizmati DAAD tomonidan moliyalashtirilgan ID-57663348-sonli “European Perspectives in Dialogue: Central Asia and Western Research – Muloqotda Yevropa istiqbollari: Markaziy Osiyo va G‘arb tadqiqotlari” nomli xalqaro loyiha doirasida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 29-dekabrda 06/8194-son ma’lumotnomasi). Natijada zamonaviy o‘zbek she‘riyatidagi peyzaj tasvirining o‘ziga xosligi va ekotantid yondashuvlarga oid ilmiy xulosalar xalqaro loyiha materiallarini yangi nazariy ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qilgan;

Orol timsoli Matnazar Abdulhakim, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Faxriyor va Eshqobil Shukur kabi shoirlar ijodida *ayol, ona* yoki o‘limga mahkum qilingan *inson* kabi obrazlar orqali ekopoetik yondashuvda tasvirlanib, *insoniyat, onalik va kelajak qadriyatlari* inqirozi singari ma’nolarni anglatishi; “*ko‘k tobut*”, “*ko‘kaylari kesilgan ayol*”, “*halok bo‘layotgan Alpomish*”, “*zaharlangan daryo*” singari paradoksal birliklar befarqlikning axloqiy va ma’naviy javobgarligini ifodalashi aniqlangan o‘rinlardan 2025-yil 22-may kuni Germaniyaning Maynz shahridagi Yoxannes Gutenberg universiteti Slavyan, Turk va Boltiqbo‘yi tadqiqotlari instituti Turkologiya kafedrasida ilmiy ma’ruza qilingan (Yoxannes Gutenberg universitetining 2025-yil 22-maydagi 55099-son ma’lumotnomasi). Natijada xorijlik talabalar va ma’ruza ishtirokchilarining o‘zbek peyzaj lirikasiga oid yangi ilmiy bilimlarga ega bo‘lishlariga erishilgan;

buxorolik ijodkorlar, jumladan, Fitrat ijodidagi peyzajning milliy adabiy tafakkur va falsafiy qatlamlarni ochishdagi ahamiyati borasidagi tahlillardan; o‘zbek peyzaj lirikasining genezisi, taraqqiyot bosqichlari va badiiy xususiyatlariga

oid mulohazalardan, peyzajning badiiy-estetik, kompozitsion va ramziy vazifalari haqidagi tasniflardan olingan xulosalardan Buxoro davlat universitetida 2024-yilda bajarilgan AL-662204396 raqamli “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 8-sentyabrdagi 5341-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha peyzaj tasvirining o‘ziga xosliklari haqidagi yangi ma‘lumotlar bilan boyitilgan;

o‘zbek peyzaj lirikasining genezisi, taraqqiyot bosqichlari va badiiy xususiyatlari ilk bor tizimli ravishda tadqiq etilgan xulosalardan, peyzajning badiiy-estetik, kompozitsion va ramziy vazifalari alohida tasniflar asosida o‘rganilib, xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot va yangi o‘zbek she‘riyatidagi badiiy namunalar orqali dalillangan mulohazalardan, o‘zbek peyzaj lirikasiga mansub she‘rlarning milliy adabiy tafakkurdagi o‘rni hamda uning falsafiy qatlamlari ochib berilgan tahlillardan, shuningdek, o‘zbek adabiyotshunosligida “topografik she‘riyat” tushunchasi, uning asosiy jihatlari, vazifalari asoslangan xulosalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasi “Assalom, Buxoro”, “Adabiyot – millat ertasi” ko‘rsatuvlarining 2025-yil 2216 va 5-sonlaridagi senariysida foydalanilgan holda tadqiqotchi bilan bevosita suhbat olib borilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasi 2025-yil 8-sentyabrdagi 01-09-209-son ma‘lumotnomasi). Natijada adabiy ko‘rsatuvlar zahirasini ilmiy jihatdan boyishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya natijalari bo‘yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 1 ta monografiya, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan xorijiy nashrlarda 3 ta, shu maqomdagi respublika jurnallarida 14 ta, boshqa xorijiy va mahalliy nashrlarda 9 ta maqola e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, sakkiz faslga o‘z ichiga olgan to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqot ishining hajmi 252 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatyasi va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning “**Peyzaj lirikasi adabiyotshunoslikning nazariy muammosi sifatida**” deb nomlangan I bobi 2 fasldan iborat. Dastlabki faslda “*Peyzaj lirikasining nazariy-metodologik asoslari*” o‘rganilgan. Peyzaj lirikasi poetik tafakkurning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, unda shoir tabiat manzaralari

orqali o'z hissiyotlari, dunyoqarashi va estetik idealini ifoda etadi. "Peyzaj lirikasi" umumiy nomi ostida birlashgan bunday ijod namunalarida tabiat va joy tasviri asosiy obraz bo'lib keladi. Bu hodisa tabiat manzarasi orqali insonning ichki olamini, hissiy kechinmalarini ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

"Peyzaj" termini lotincha *pagus* (qishloq, yer, hudud) so'ziga borib taqaladi. Bu lotincha ildizdan fransuz tilida "yer, mamlakat" ma'nosini anglatuvchi *pays* so'zi shakllangan. Unga *-age* qo'shimchasining qo'shilishi orqali esa "*paysage*" atamasi ("manzara", "landshaft") hosil bo'lgan. Ushbu fransuzcha atama bizning tilimizga rus tilidagi "*пейзаж*" shakli orqali kirib kelgan. U faqatgina tabiat manzarasi tasviri emas, balki real, xayoliy yoki ideal borliqning badiiy obrazidir. Hozirda "peyzaj" tushunchasi san'atshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya va ekologiya kabi fanlar kesimida qo'llanilmoqda: 1) tasviriy san'atda: ruhiy holat va falsafiy g'oyalarni ifodalovchi badiiy obraz; 2) adabiyotshunoslikda: Badiiy matnda tabiat tasvirining poetik, konnotativ va simvolik qatlamlarini tahlil qilishda qo'llanadi; 3) ekologik yondashuvda: muayyan hududda shakllangan tabiiy va antropogen omillar majmuasidan iborat murakkab landschaft tizimi. Shu tariqa, "*peyzaj*" termini etimologik jihatdan chuqur ildizlarga ega bo'lib, bugungi kunda san'atshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va ekologiya kabi bir nechta fanlar uchun umumiy hamda fanlararo ahamiyatga molik atama sifatida keng qo'llanilmoqda. Adabiy matnda peyzaj nafaqat tasviriy-estetik vosita, badiiy fon, balki ramziy, psixologik, ijtimoiy-siyosiy, ekologik va falsafiy mazmunni ifodalashning faol komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Tushuncha sifatida peyzaj ilk bor Yevropa san'atida XVII asrda tabiat manzarasining badiiy ifodasi sifatida shakllangan bo'lsa, adabiy matn doirasida u XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mustaqil poetik birlik sifatida qo'llanila boshlagan.

Peyzaj tasviri adabiyotda qadimiy ildizlariga ega bo'lishiga qaramay, ilmiy atama sifatida nisbatan kechroq – XX asr boshlaridan ilmiy muomalaga kirgan. Pus formalistlari (B.Tomashevskiy) tomonidan matnning "statik elementi" va strukturalistlar (Y.M.Lotman) tomonidan esa "axborot tashuvchi semiotik birlik" sifatida funksional ahamiyatga ega bo'ldi. Peyzaj fransuz ilm-fanida XVIII asrda estetik konsepsiya sifatida paydo bo'lib, Shatobriand, Russo va V.Gyugo asarlarida psixologik va falsafiy qatlamda chuqurlashgan bo'lsa-da, asosan, XX asrda simvolistlar va modernistlar tomonidan fanda qo'llanila boshlagan. Jumladan, Rolan Bart peyzajni ikki darajali semiotik struktura (denotativ – to'g'ridan-to'g'ri tabiat tasviri va konnotativ – kulturologik, psixologik, ideologik mazmun) sifatida baholab, uning muallif dunyoqarashi va ijtimoiy kontekst bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlagan.

Mazkur faslda peyzaj lirikasining nazariy asoslari quyidagicha tizimli tasnif qilingan: 1. Peyzajning adabiyotdagi falsafiy asoslari Aristotel (m.o. 384–322-yillar), Titus Lukretsiy Kar (m.o. 99-55-yillar), Goratsiy (m.o. 65–8-yillar), L.da Vinchi (1452-1519), F. Bekon (1561-1626), N.Bualo (1636-1711), I.Kant (1724-1804), F.Gegel (1770-1831) kabi mutafakkirlar asarlaridagi tabiat, san'at va adabiyot munosabatlari tahlil qilingan. Peyzaj lirikasining falsafiy ildizlari qadimgi yunon adabiy tafakkuridan boshlanadi. Aristotel "Poetika"¹² asarida san'at va

¹² Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – Б. 23-24.

tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni *mimesis* – ya'ni taqlid nazariyasi orqali izohlaydi. Uning fikricha, poeziya insonning ichki kechinmalarini tashqi tabiat manzaralari orqali ifodalovchi tabiiy ehtiyojdir. Shu bois, peyzaj lirikasining nazariy ildizlari inson ruhiyatining tabiat bilan uyg'un tasvirlanishiga tayanadi. Titus Lukretsiy Kar esa "Narsalar tabiati haqida" ("De Rerum Natura")¹³ asarida tabiatni ilohiy kuch emas, balki qonuniyatli tizim sifatida ko'rsatadi. U tabiat hodisalarini shoir ruhiy kechinmalari bilan uyg'un holda ifodalab, peyzajni falsafiy anglash bosqichiga ko'tardi. F.Bekon "Yangi Organon"¹⁴ asarida poeziya tabiatni aks ettirish emas, balki uni inson orzu va tuyg'ulari bilan boyitish vositasi ekanini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, she'riyat tasavvurga asoslanadi va inson ongining erkin ijodiy ifodasidir. N.Bualo "Poeziya san'ati" (1674) asarida "shoir fikrini tabiat bezagan bo'lishi lozim"¹⁵ deya tabiiylik, aql-idrok va uyg'unlikni poeziyaning asosiy mezoni deb biladi. I.Kant "Hukm tanqidi" asarida tabiat go'zalligini inson ongining estetik idroki bilan bog'lab, "ulug'vorlik" (sublime) nazariyasini ilgari suradi. Bu nazariya peyzajni nafaqat tashqi manzara, balki inson ruhiy holatini ifodalovchi estetik obraz sifatida talqin etishga zamin yaratdi. F.Gegel esa "Estetika" asarida san'at go'zalligini tabiat go'zalligidan yuqori qo'yib, badiiy tasvir – bu ruhning ongli ijodiy mahsuli ekanini ta'kidlaydi. Gegelga ko'ra, tabiatdagi go'zallik bevosita, san'atdagi esa – ong orqali qayta yaratilgan estetik haqiqatdir. Shu asosda peyzaj lirikasidagi tabiat manzarasi inson ruhiy kechinmasining falsafiy aksidir.

2. Amerika adabiyotshunosligida: Ch.Glotfelti, H.Fromm, Frederik O. Vaaj, A.Nitekki, S.Slovik, L.Buyel, G.Garrard, R.Kerridgening ilmiy asarlari asosida peyzajning ekotanqidiy tahlili yoritilgan. Bu boradagi tadqiqotlarda ayniqsa "Ekocritika antologiyasi: adabiyot ekologiyasining muhim bosqichlari" ("The Ecocriticism Reader: Landmarks in Literary Ecology", 1996¹⁶) nomli to'plamni alohida e'tirof etish kerak, chunki u adabiyotshunoslikda ekologik qarashlarning shakllanishiga asos bo'lgan muhim manbalardan biridir.

3. Yevropa adabiyotshunosligida: V.Empson, R.Villiams, J.Beyt, T.Gifford, K.Kroeber, M.Midgley, P.Berri, N.Tomas, S.Solnik, S.Lidstrom, R.Sachers, Ch.Peakening tadqiqotlarida peyzajning poetik, estetik va madaniy vazifalari o'rganilgan. Zamonaviy yondashuvlarda N.Tomas ("The New German Nature Lyric", 2020), S.Solnik ("Poetry and the Anthropocene", 2016), S. Lidstrom (2015) va R.Sachers (Gyote poetikasi tahlili, 2019) peyzajni ekologik inqiroz va antropotsen kontekstida talqin qiladilar. Ch.Peake esa XVIII asr ingliz peyzaj she'riyati ("Poetry of the Landscape and the Night")ni kechinma va manzara uyg'unligining manbai sifatida ko'rsatadi.

4. Rus adabiyotshunosligida M. N. Epshteyn, N. Abuzova, A. Shapurina, Yekaterina Nagornova, Tamara Dyakova, Maksim Shipelskiylarning ilmiy

¹³ Lucretius. On the Nature of Things. Book II. Translated by Frank O. Copley. – New York: W. W. Norton & Company, 1977. – 177 p.

¹⁴ URL:<https://www.gutenberg.org/files/5500/5500-h/5500-h.htm> (murojaat qilingan sana:20.11.2024) Book II, Section XIII.

¹⁵ Qarang: iqtiboslar URL:<https://archive.org/details/lartpotiqueedi00boil/page/32/mode/2up?utm=> (murojaat qilingan sana:21.11.2024)saytidagi Boileau, Nicolas. L'Art poétique. – Paris: Hachette, 1887. Electron kitobining 36-betidan olingan. Tarjimalar dissertatsiya muallifiga tegishli.

¹⁶ The Ecocriticism Reader: Landmarks in Literary Ecology / Edited by Cheryll Glotfelty and Harold Fromm. – Georgia: by the University of Georgia Press Athens, 1996. – 456 p.

ishlarida peyzajni kompozitsion va semiotik vosita sifatidagi tahlili tizimlashtirilgan. Jumladan, M.N.Epshteynning “Tabiat, olam, koinotning yashirin mohiyati: Rus she’riyatida peyzaj obrazlari tizimi”¹⁷ nomli asari rus poeziyasi tarixida peyzaj obrazlari tizimini ilk marotaba chuqur va keng qamrovda o’rganagan fundamental tadqiqotdir. U 130 nafar muallifning 3700 dan ortiq asari asosida muammoni o’rganadi va “poeziya – tabiatning ikkinchi ‘meni’dir” degan mashhur g’oyani ilgari surgan.

5. Turkiya adabiyotshunosligida: N. Buyukkaya, H. Deg’irmanchi, S. Ig’nechiog’lu, A. Pulat, M. Kara, M. O’zdemir, K. D. Vannig, A. Sariaslan, S. Shahin, G. Tunch, M. Yildiz, Ismail Abalining asarlaridagi peyzaj tahliliga oid yondashuvlar ko’rib chiqilgan.

6. Tojik adabiyotshunosligida: Laljuba Mirzohasanov va Nargis Subxonqulova tabiat lirikasining poetik shakllarini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlari asosan tojik klassik poeziyasi – Rudakiy, Hofiz va Bedil ijodida tabiat obrazining falsafiy ma’nosini ochishga qaratilgan.

7. O’zbek adabiyotshunosligida peyzaj lirikasining nazariy-metodologik asoslari. Bu boradagi tadqiqotlar a) adabiyotshunoslik nazariyasiga oid darslik, o’quv qo’llanma va lug’atlarda peyzaj masalasi (H.Umurov, E.Xudoyberdiyev, A.Ulug’ov, D. Quronov, B.To’rayeva va U.Ko’chimov) yoritilgan; b) she’riyat va nasrga bag’ishlangan alohida tadqiqotlarda muayyan ijodkorlar ijodini tadqiq qilish jarayonida peyzajga u yoki bu darajada munosabat bildirilgan. Jumladan, N.Yo’ldoshev Cho’lpon she’riyatida peyzajning funksional vazifalari, uning peyzaj yaratish mahorati, tabiat tasviri va badiiy san’atlar masalasi chuqur tahlil qilingan. Jumladan, olimning quyidagi fikrlari bu borada diqqatni tortadi: “Umuman olganda, inson va tabiat munosabatlari muammo bo’lib borayotgan bugungi kunda tabiat musaffoligini saqlash, uning dardiga hamdard bo’lish har bir insonning burchidir”¹⁸. Bu mulohazalarni peyzaj lirikasi tadqiqi doirasida o’zbek adabiyotshunosligida ekotanqidning debochasi sifatida baholash mumkin. A.Zaripov Abdulla Oripov ijodidagi peyzaj tasvirining chuqur nazariy va badiiy-estetik jihatlarini yoritgan. Ushbu tadqiqotda shoirning tabiat manzaralarini ifodalash mahorati, ularning falsafiy mohiyati hamda inson ruhiyati bilan uyg’unligi atroflicha o’rganilgan. Olim Abdulla Oripov she’riyatida peyzajning shunchaki tasvir emas, balki chuqur ma’no va hissiyotlar tashuvchi muhim badiiy element ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan¹⁹.

D.Quronov peyzajni quyidagicha ta’riflagan: “Peyzaj (fr. paysage – joy, yurt) – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon – interyer) tasviri. An’anaga ko’ra, P. deyilganda tabiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish birmuncha torroq. Chunki P. nafaqat tabiatni (agar bu so’z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko’zda tutadi. Shu

¹⁷ М.Н.Эпштейн. “Природа, мир, тайник вселенной...”: Система пейзажных образов в русской поэзии: Науч.-попул. – М.: Высш. шк., 1990. – С. 303.

¹⁸ Ўлдошев Н. Чўлпон шеърлятида пейзаж. Филология фанлари номзоди диссертацияси. – Т., 1995. – Б. 8.

¹⁹ Zaripov A. Abdulla Oripovning peyzaj lirikasi badiiyati. Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – T., 2024. – B. 26.

ma'noda, mas., biron-bir xiyobon yoki shahar ko'chasining tasviri ham P., holbuki, ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir²⁰". Shularga tayanib, "peyzaj" adabiy istilohi bilan bog'liq qarashlarni umumlashtirish mumkin. Adabiyotshunoslikda peyzaj atamasi, asosan, tabiat tasviri ma'nosida qo'llaniladi. Biroq yuqorida²¹ bu tushunchani tor talqinda cheklab bo'lmazligi alohida ta'kidlangan. Chunki peyzaj faqat tabiat manzarasini aks ettirmaydi, balki inson ongi va mehnati mahsuli sifatida yaratilgan joylar – xiyobon, ko'chalar, arxitektura muhitlari, ochiq makonlar ham bu tasvir doirasiga kiradi. Demak, *peyzaj bu – badiiy voqelikdagi makoniy tasvirning keng qamrovli shakli bo'lib, u voqealar fonini, estetik muhitini va ko'p hollarda qahramon ruhiyatini aks ettiruvchi vosita vazifasini o'taydi*. Shu asosda, peyzaj lirikasi atamasini nafaqat tabiatga xos manzaralar bilan, balki topografik yoki loko-tasviriy she'riyat degan kengroq kontseptual doirada ko'rib chiqishga ilmiy zaruriyat bor. Chunki bu turdagi she'rlarda yozuvchi yoki shoir muayyan geografik yoki madaniy joyni – lokusni (lotincha, biror narsa joylashgan yoki sodir bo'lgan joy²²) tasvirlash orqali shaxsiy xotira, tarix, ijtimoiy muhit yoki ideologik qatlamni ifodalashi mumkin. Misol uchun, zamonaviy lirikada ko'chalar, vokzal, yodgorlik, mahalla, qabriston, fabrikalarning tasviri inson ruhiy kechinmalari bilan bog'langan holda beriladi. Bu tasvirlar joyning hissiy ta'sirini kuchaytiradi va ular o'quvchining estetik didi, madaniy bilimi hamda ichki kechinmalari bilan uyg'unlashadi. Shuning uchun, *"topografik she'riyat"* yoki *"loko-tasviriy lirika"* atamalari peyzaj lirikasini kengroq ma'noda ifodalash uchun ilmiy muqobil variantlar sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Bu istilohlar she'riyatda joy va makonning ijtimoiy, tarixiy, shaxsiy va poetik yuklamalarini peyzaj atamasiga qaraganda yana-da kengroq tahlil qilishga imkon yaratadi.

Bobning 2-faslida *"Peyzaj tasvirining o'zbek xalq lirikasi va mumtoz adabiyotdagi shakllanish jarayoni hamda badiiy vazifalari"* yoritilgan. Insoniyat tafakkurida tabiat va borliqni anglash qadimdan markaziy o'rin tutib, mavjudotning to'rt asosiy unsuri – yer, suv, havo va olov (Anosir-i araba) – tiriklikning poydevori sifatida e'tirof etilgan; shu asosda o'zbek adabiy tafakkurida peyzaj tasviri inson, tabiat va ilohiylik o'rtasidagi uyg'unlikni ifodalovchi falsafiy badiiy konsepsiyaga aylangan.

Xalq og'zaki ijodida tabiat obrazlari markaziy o'rinda turadi, chunki inson, avvalo, tabiat bag'rida yashagan, unga bo'ysungan yoki u bilan til topishishga harakat qilgan. "Qadimgi odamning tabiatni tushunishi va voqelikni idrok etishi g'oyat murakkab tafakkur hodisasi hisoblanadi"²³. O'zbek folklorida tabiat shunchaki badiiy vosita emas, balki asarning faol ishtirokchisi, obrazli timsol sifatida inson hayotida muhim o'rin tutadi. Ertak, doston, xalq qo'shiqlari, maqol va topishmoqlarda daryo, tog', daraxt, qush, yovvoyi hayvonlar kabi tabiat unsurlari personifikatsiya qilinib, insoniy xislatlar bilan tasvirlanadi. Bu orqali

²⁰ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013. – Б. 220-221.

²¹ O'sha manba. – Б. 220-221.

²² URL: <https://www.merriam-webster.com/dictionary/locus> (murojaat qilingan sana:19.01.2025)

²³ O'zbek folklori: darslik / T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. – Т.: Tafakkur bo'stoni, 2020. – Б. 24.

tabiat bilan bog'liq axloqiy, estetik va ijtimoiy qarashlar shakllantiriladi. Folklorda: 1) antropotsentrik²⁴ (yunoncha: *anthropos* – inson va lotincha *sentron* – markaz, inson tabiatdan yuqorida, u tabiatni boshqaradi; antropotsentrizm – mavjudlik, tabiat, jamiyat haqidagi har qanday bilimda va bilimning o'zida insoniy o'lchov mavjudligini tasdiqlovchi ilmiy va falsafiy kognitiv yondashuv); 2) ekosentrik²⁵ (inson ham boshqa mavjudotlar kabi tabiatning bir bo'lagidir va unga bo'ysunadi) yondashuvlar birgalikda mavjud bo'lib, ularning uyg'unligi o'ziga xos xalqona dunyoqarashni vujudga keltiradi. Folklorda peyzaj va tabiat detallari shunchaki badiiy fon emas, balki ramziy ma'nolar ifodasi va xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, hatto ijtimoiy-siyosiy holatini aks ettiruvchi muhim vositadir. Ular orqali quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

I. Inson va tabiat uyg'unligi: folklor asarlarida tabiat hodisalari (fasllar almashinuvi, quyosh chiqishi va botishi, oyning holatlari) inson hayotining tug'ilish, o'sish, kamolot va o'lim kabi sikllari bilan bevosita bog'lanadi. Masalan, bahor yangilanish va umid ramzi bo'lsa, qish yakunni anglatishi mumkin. *Bahor kelib qor ketmasa, alla, / Gul ochilib yashnamas, alla. / Hech kim mendek darding bilan, alla, / G'amlaringga oshnamas-o, alla*²⁶.

II. Ramziy ma'nolar va metaforalar: xalq og'zaki ijodiga mansub asarlarda tasvirlangan flora va fauna obrazlari o'ziga xos ramziy ma'noga ega bo'ladi. Masalan, chinor mustahkamlik va uzoq umr, gul go'zallik va noziklik, bo'ri jasorat va yovvoyilik, vahshiylik va laqmalik, qush erkinlik ramzi sifatida qo'llaniladi: *Olma gulin to'kadir, / Yursam akam so'kadir. / Ko'p so'kmangiz, akajon, / Besh kun umrim o'tadir*²⁷. Ranglar simbolikasi: tabiatdagi ranglar ham muhim ramziy ma'nolarga ega. Yashil rang umid, hayotiylik va o'sish, qizil rang muhabbat, yoshlik yoki qon va o'lim, oq rang poklik va begunohlikni bildiradi. *Sandiq usti sariq gul, / Taqsam ado bo'lmaydi. / Yurakdagi hasratni, / Aytsam ado bo'lmaydi*²⁸.

III. Xalqning dunyoqarashi, e'tiqodlari va donishmandligi: Tabiatdagi voqea-hodisalarni kuzatish orqali shakllangan xalq donishmandligi, masalan, ob-havo bashoratlari, ekin ekish va yig'ish bilan bog'liq tavsiyalar folklor orqali avloddan avlodga o'tadi: *Qizg'aldoq lola emas, / Kapasi qal'a emas. / Lola unib chiqmasa, / Bu dala dala emas*²⁹.

IV. Qahramonlar xarakterini ochish: tashqi ko'rinish orqali xarakter: Ba'zan qahramonning tashqi ko'rinishi, ayniqsa, uning tabiat bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini uning xarakteri yoki taqdirini ochib beradi. Masalan, qahramonning "daraxtdek bo'ychan" yoki "guldek nozik" bo'lishi uning sifatlarini ta'kidlaydi. *Qizil gul duyim-duyim, / Qizil guldayin bo'yim. / Mendan boshqani desang, / So'ladi rangi ro'yim*³⁰.

²⁴ URL:<https://gtmarket.ru/concepts/7223> (murojaat qilingan sana:07.02.2025)

²⁵URL: <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/3974576> (murojaat qilingan sana:07.02.2025)

²⁶ O'sha asar, 32-bet.

²⁷ Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ қўшиқлари. Тўпловчи: М.Алавия. www.ziyouz.com кутубхонаси. – Б. 52.

²⁸ URL: <https://uzbekliterature.uz/uz/node/618> (murojaat qilingan sana:11.03.2025)

²⁹ URL:<https://uzbekliterature.uz/uz/node/618> (murojaat qilingan sana:11.03.2025)

³⁰ URL:<https://uzbekliterature.uz/uz/node/618> (murojaat qilingan sana:11.03.2025)

Peyzajni nafaqat oddiy manzara tasviri, balki ilohiy mavjudlikning, yaratilishning va inson ruhiy yo'lining bir ko'rinishi sifatida diniy an'analarda muhim o'rin tutadi. "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sifatida qadimiy ilohiy dunyoqarashni va atrof-muhitga munosabatni aks ettiradi. Unda yozilishicha, odamlar tog'larni ulug'lab, madhiyalar bitib sharaflaganlar, tog'lardagi mo'jizaviy jihatlarni kashf etib ilohiylashtirganlar³¹. Huvarno "Avesto"ning o'n to'qqizinchi qasidasi hisoblanib – zamin ma'budasidir. Ushbu qasidada asosan tog'lar haqida madhiyalar o'rin olgan³². Zardushtiylikdan so'ng kelgan monizmga aloqalar badiiy yaratmalarda ham porlab turgan Quyosh shodlik, baxt ramzi sifatida talqin etilib, uning zarrin nurlari zulmatni yo'qotadi va shu asosda inson ruhiga ko'tarinkilik baxsh etadi, deya e'tirof etilgan³³.

Peyzaj lirikasi tabiat go'zalliklari orqali lirik qahramonning kechinmalarini ifodalaydi. Islom diniga ko'ra, bu go'zalliklar Allohning yaratuvchilik qudratining namoyon bo'lishidir. Shu sababli, shoirlar tabiat tasvirida bevosita yoki bilvosita ilohiy qudratni nazarda tutganlar, bunga ko'ra Ollohning go'zal ismlaridan (Asmo al-Husna)³⁴ quyidagilar uning butun borliqni mukammal yaratuvchisi sifatida tavsiflaydi: Al-Xoliq – "olamdagi har narsani o'z xohishi bo'yicha yaratuvchi, bor qiluvchi" (5-bet). She'rda tabiat manzarasi tasvirlanar ekan, bevosita Al-Xoliqning ulug'vorligi madh etiladi. Al-Bari' – "yo'qdan bor qiluvchi, har bir narsasini uyg'unlikda yaratuvchi" (5-bet). Al-Xoliq ismidan farqli o'laroq, Al-Bari' ismida yaratish jarayonidagi uyg'unlik va muvozanatga urg'u beriladi. Peyzaj lirikasi aynan mana shu uyg'unlikni so'zlar vositasida tasvirlashga intiladi. Al-Musavvir – "suvrat beruvchi. Yaratgan har bir mavjudot va maxluqotlarga o'zi istagan shaklni, suratni beruvchi" (6-bet). Al-Badi' ismining ma'nosi tabiatning betakrorligi bilan bog'liq.

Qur'onda osmonlar, yer, quyosh, oy, yulduzlar, dengizlar va boshqa tabiat mo'jizalari Allohning qudrati sifatida berilgan. Jumladan, Baqara surasi, 164-oyatda bu haqida shunday deyiladi: "Albatta, osmonlar va Yerning yaratilishi, tun-u kunduzning ketma-ket kelishi, insonlar uchun foydali narsalar bilan dengizda suzib yuradigan kemalar, Alloh osmondan tushirgan suv bilan yerda turli tirikliklarni paydo qilishi – bularning barchasida tafakkur qiladigan qavm uchun alomatlar bordir". Qur'oni karimda mahshar kuni tasviri ham alohida o'rin tutadi. Jumladan, Mahshar kuni: "U kunda osmon erib, eritilgan misga o'xshar. Tog'lar esa tarqalgan rangli jun kabi bo'lar" (Muddassir surasi, 8–9-oyatlar). Jannatning kengligi va sifatlari: "Rabbingizdan mag'firatga va kengligi osmonlar va Yerning kengligidek bo'lgan, taqvodorlar uchun tayyorlab qo'yilgan jannatga shoshiling" (Oli Imron surasi, 133-oyat). Umuman olganda, Qur'oni peyzaj ma'naviy va moddiy dunyolar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning dalilidir, bu insoniyatni nafaqat yaratilish go'zalligiga qoyil qolishga, balki uning chuqur ma'nosini va uni saqlash uchun o'z mas'uliyatini tushunishga chorlaydi.

³¹ Хўжамуродов И. "Авесто"да дехкончилик маданияти. Монография. – Т.: Наврўз, 2018. – Б.138.

³² Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик А. Махкам таржимаси. – Т.: Шарк, 2001. – Б. 229.

³³ Эшонқулов Ҳ. Самовот – ишқ мазҳари. – Т.: Фан, 2008. – Б. 17.

³⁴ Куръони каримдан айрим суралар: Каҳф, Ёсин, Духон, Воқеа, Жумъа, Мулк ва Амма пораси. Мусанниф М.Қодиоров. – Т.: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2020. – 304 б.

Mumtoz adabiyotda borliq manzarasi, tabiat obrazlari va detallari tasviri alohida o‘rin tutadi: 1) *keng ko‘lamli tabiat tasvirlari*: bu turga qasidalar, ayrim g‘azallar va dostonlarning muqaddima yoki xotima boblarida sof tabiat manzaralarining berilishi kiradi. Bunda yil fasllari, osmon jismlari va borliqning yaratilishi kabi umumiy manzara keng ko‘lamda ifodalanadi. Jumladan, mumtoz g‘azal, qasida va dostonlarda peyzajga oid tasvirlar bir necha muhim vazifalarni bajaradi: – lirik qahramonning emotsional-ruhiy holatlarini yoritishda muhim o‘rin tutadi (masalan, “Layli va Majnun” dostonida voqealarning bahordan boshlanib, kuz orqali tugashi qahramonlar kechinmalarining o‘zgarishini ifodalaydi); – ijodkorning badiiy niyatidan kelib chiqib, asar voqealarini tasvirlashda qo‘llaniladi (masalan, “Saddi Iskandariy” dostonida urushlarning qish faslida, shohning visol onlarini esa bahorga uyg‘unlikda tasvirlash³⁵); – xayoliy makonlar tasviri orqali taxayyulga keng o‘rin berish imkonini beradi (masalan, “Farhod va Shirin”da Suhaylo hakim va Suqrot yashaydigan joy tasviri; “Saddi Iskandariy” dostonida Hindistondagi Nigor o‘rmoni va ummon tubi tasvirlari). 2) *lirik qahramon kayfiyatiga muvofiq peyzaj detallari*: ikkinchi turda esa turli janrlardagi lirik asarlar doirasida lirik qahramonning ichki kechinmalari va kayfiyatiga mos ravishda tabiat detallari va obrazlariga murojaat qilinadi. Bu yerda peyzaj poetik fon vazifasini o‘taydi, qahramonning ruhiy holatini chuqurlashtiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning ikki fasldan iborat bo‘lgan ikkinchi bobi **“O‘zbek peyzaj lirikasida olam manzarasining makon va zamon xususiyatlari”** deb nomlangan. Bu bobda peyzaj tasvirining badiiy-estetik, psixologik, g‘oyaviy-tematik va kompozitsion funksiyalari atroflicha tahlil qilinib, ularning o‘zbek she‘riyatida olam manzarasini qayta yaratishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslangan. Bobning dastlabki faslida *“Peyzajni tasniflash tamoyillari va unda topografik she‘riyatning o‘rni”* yoritilgan. Peyzaj lirikasida tabiat tasviri markaziy o‘rin tutsada, bu shunchaki tashqi manzarani aks ettirishdan ko‘ra chuqurroq mazmunni o‘zida ifodalaydi. Unda tabiat obrazlari orqali shoirning ichki kechinmalari, falsafiy mushohadalari, ijtimoiy munosabatlari va siyosiy qarashlari noziklik bilan aks etadi. Shularga asoslanib, lirikada peyzaj tasviriga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: *“She‘riyatda peyzaj inson va olam o‘rtasidagi hissiy munosabatlar, falsafiy, ijtimoiy, siyosiy hamda ekologik g‘oyalarni aks ettiruvchi tavsifiy lirikaning muhim ko‘rinishidir. Peyzaj lirikasida tabiat tasvirlari va obrazlari orqali muayyan joy yoki borliq manzarasi badiiy aks ettiriladi”*.

Ushbu tadqiqotda mavjud tasniflardan farqli o‘laroq, peyzaj lirikasining yangicha jihatlari va funksional imkoniyatlarini ochib berish maqsadida, inson ruhiyati va tabiat manzarasi o‘rtasidagi murakkab aloqadorlikni quyidagi umumiy jihatlariga ko‘ra tasniflab o‘rganilgan. Bu sinflashtirish orqali peyzaj lirikasining badiiy-estetik, psixologik va kompozitsion imkoniyatlari tizimli tarzda yuzaga chiqadi: 1. Peyzaj lirikasi badiiy-estetik, psixologik (masalan, Fitratning “Mening kecham”, Rauf Parfining “Onamga xat” she‘ri), g‘oyaviy-tematik (Jamol Kamolning “Buyur, dedim”, “O‘zbekiston tuni” she‘rlari) va kompozitsion

³⁵ Эркинов А. Навоий – пейзаж устаси. – Т.: Фан, 1998. – Б. 19.

vazifalarni bajaradi. Masalan: Jamol Kamolning “Ona o‘tmish, ona istiqbol” she’rida: “*Tush chog‘i... Tanhoman kimsasiz bog‘da / bola ko‘zlarimda lovullagan yoz*” kabi ifodalar orqali vizual sahna yaratiladi. Shuningdek, A.Oripov. “Hangoma”³⁶, Mirzo Kenjabekning “Nurali va uning asl onasi haqida ertak” she’rida saraton manzarasi lirik sujetni yurituvchi kompozitsion element sifatida namoyon bo‘ladi³⁷. 2. Ifoda maqsadiga ko‘ra: obyektiv (tasviriy, diskriptiv yoki kartinali peyzaj), subyektiv va falsafiy peyzaj o‘zaro farqlandi. Masalan, Jamol Kamolning “Tun chorlaydi”, “Bir tup jonon o‘rik”, “Tabiat bazmi” she’rlari; Abdulla Oripovning “Tog‘lar”, “O‘rmon”, “Holat”, Abdulla Oripovning “Darband daryosi” she’rlari, Matnazar Abdulhakimning “Daraxtzor”, “Oddiy manzara”³⁸ kabi she’rlarida sof peyzaj (obyektiv) mujassam. Abdulla Oripovning “Kuz xayollari” Jamol Kamolning “Tasavvur” she’rlarida esa falsafiy peyzaj xususiyatlari namoyon bo‘ladi. 3. Ichki kechinma xarakteriga ko‘ra: a) shodlik va umid peyzaji (pozitiv, ko‘tarinki) masalan, Jamol Kamolning “Tun. Bog‘imda kezaman”³⁹, “Seviston” she’rlari; b) g‘amginlik va sog‘inch peyzaji (negativ, o‘ychan) A.Oripovning “Kuz manzarasi” she’ri; s) xotirjamlik va tafakkur peyzaji (osoyishta, chuqur intellektual) Jamol Kamolning “Tasavvur” she’ri; d) isyonkorlik va kurash peyzaji (dinamik, ziddiyatli) kabi turlarga bo‘linadi. 4. Peyzaj lirikasining asosiy mohiyati “vaqt” va “makon”ning uzviy birligi, ya’ni xronotop konsepsiyasi tashkil etadi. Bunda peyzaj lirikasi, tabiat manzaralari inson tafakkurining vaqt va makon o‘rtasidagi dialektik uyg‘unligini aks ettiruvchi estetik tuzulma, xronotopik model sifatida namoyon bo‘ladi. Topografik she’riyat tushunchasi makonga munosabatiga ko‘ra peyzajning ko‘rinishi hisoblanadi.

Topografik she’riyat (yoki loko-tasviriy she’riyat) – bu poeziyaning bir janri bo‘lib, unda makon va tabiat tasvirlari markaziy o‘rin tutishi bilan izohlanadi. Shoir muayyan geografik joy yoki tabiat manzaralarini badiiy vosita sifatida qo‘llab, ular orqali o‘zining ichki dunyosi, kayfiyati, fikrlari va hayotga munosabatini ifodalaydi. Uning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Garchi uning namunalari kechki klassik davrdan, o‘rta asrlar va Uyg‘onish davrida ham topilgan bo‘lsa-da, topografik she’riyatning mustaqil adabiy hodisa sifatida shakllanishi biroz kechroq davrlarga to‘g‘ri keladi. Topografik she’rlar alohida janr sifatida ilk bor 17-asrda ingliz adabiyotida paydo bo‘ldi. Jumladan, Jon Denhamning 1642-yilda e’lon qilingan “Kuper tepaligi” (*Cooper’s Hill*) she’ri bu yo‘nalishga asos solgan asar hisoblanadi. Topografik she’riyat 17–18-asrlarda Yevropa adabiyotida ayniqsa keng tarqaldi va mashhurlikka erishdi⁴⁰. Ilk topografik she’rlar muayyan hududlar landshaftiga qaratilgan bo‘lib, ko‘pincha shahardagi binolar, yirik daryolar va bog‘lar kabi joylarni tasvirlab bergan. Keyingi asrlarda (xususan, XX asrda) topografik she’rlar hissiyot, subyektiv tajriba va tabiatning ramziy ifodasi, konnotatlari kabilarni ko‘proq ifodalashga yo‘naldi. Aubin Robert Arnold⁴¹ bu

³⁶ Адабиётшунослик луғати / Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. – Т.: Akademnashr, 2013. – Б. 221.

³⁷ Мирзо Кенжабек. Куёшга қараган уй. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. –27-б.

³⁸ Матназар Абдулқаким. Жавзо ташрифи. Шеърлар, дostonлар. – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 202-206.

³⁹ Жамол Камол. Сайланма. Биринчи жилд. Аср билан видoлашув. – Т.: Фан, 2007. – Б. 22.

⁴⁰ https://en.wikipedia.org/wiki/Topographical_poetry (murojaat qilingan sana:21.04.2025)

⁴¹ Robert Arnold Aubin. Topographical Poetry in XVIII-century England. – New York: Kraus Reprint Corp, 1966. – 420 p. (Qayta nashr, dastlab 1936-yil nashr etilgan)

jihatdan maxsus tadqiqot yaratgan. Yana Jon Barrell⁴², Sesil Viktor Deane⁴³ kabi yaxlit ishlar ahamiyatli.

Topografik she'riyatga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni o'zbek she'riyati misolida quyidagicha aniqlashtirish mumkin: **1)** joyning tavsifi: she'ning asosiy qismi nomlari aniq ko'rsatilgan haqiqiy joylarning batafsil tasvirlanishidan iborat bo'ladi – "O'zbekiston" (Hamid Olimjon), "Qishlog'im" (Mirtemir); **2)** yuksak nigoh – prospekt she'riyati: odatda, baland nuqtadan turib, katta fokusdagi manzarani tasvirlaydi. Bu pastdagi manzaraga nazar tashlash orqali vaqtinchalik kelajakka nazar solish, umid yoki imkoniyat hissini ham ifodalashi mumkin – Jamol Kamol "Seviston"; **3)** tarixiy va ijtimoiy tafakkur: manzara tasviri ko'pincha tarixiy voqealar, ijtimoiy va siyosiy masalalar yuzasidan falsafiy yoki axloqiy mulohazalar bilan chambarchas bog'lanadi. She'r, shuningdek, shaxsiy kechinmalar va tarixiy tafakkur uchun maydon bo'lib xizmat qiladi (M.Shayxzodaning "Toshkentnoma"da Toshkent, M.Yusufning "Ko'hna quduq" dostonida Buxoro tasviri). **4)** "*Genius Loci*" tamoyili: lotincha "joy ruhi" degan ma'noni anglatuvchi bu tushuncha topografik she'riyat uchun muhimdir. Bu tushunchaga ko'ra, adabiyotda manzaraga maxsus metaforik ma'no berish uchun qo'llaniladi – "Samarqandga borsam men agar..." (M.Yusuf) yoki Buxoro tasviridagi minora obrazi; **5)** estetik usullar: she'rlarda umumiy manzaraning rakursli tasvirlarini turli badiiy san'atlar orqali yuzaga chiqaradi hamda daryolar, xarobalar, oy nuri, tog'lar, g'orlar, qishloq tasvirlari kabilarni qamrab oladi – "Ko'kqiyo" (Mirtemir) she'rida tashxis, tashbeh kabi san'atlar orqali tog'lar bag'ridagi mo'jaz qishloq tasviri g'oyat go'zal ifoda qilingan. Shuningdek, ushbu faslda o'zbek she'riyatida topografik she'riyatning o'ziga xosligi geografik landshaftlar, muayyan (lokal) joy peyzajlari yopiq va xayoliy makon peyzajlari tarzida tasniflangan.

Bobning ikkinchi faslida "*Lirikada vaqtga aloqador peyzajlar: tabiat fasllari hamda kun va tun dialektik birligining badiiy tasviri*" tadqiq qilingan. Belgilangan vazifa 2 jihatiga ko'ra tasniflab tahlil qilingan: 1. Lirika inson qalbining vaqt ichra aks-sadosidir. Har bir tuyg'u – vaqtga singgan, har bir obraz – zamonning badiiy izidir. Vaqtning she'rdagi eng tabiiy ko'rinishi esa peyzaj – ya'ni tabiat manzarasi orqali ifodalanadi. Chunki tabiatda vaqt – ko'rinadigan, eshitiladigan, seziladigan hodisadir: u bargning ochilishi, qorning erishi, shamolning yo'nalishi, qushlarning qaytishida yashaydi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Rizo Ogahiy kabi shoirlar ijodida fasllar ontologik vaqtning ramzi bo'lib keladi: bahor – yaralish va umid, yoz – kamol va ehtiros, kuz – hijron va yetilgan tafakkur, qish esa – so'nish va falsafiy xotimani bildiradi. Bu to'rtlik, aslida, hayot aylanishining poetik modelidir.

Yangi o'zbek she'riyatda esa an'anaviy ravishda tabiat inson qalbining simvolik ko'zgusi sifatida talqin etiladi. Har bir fasl inson hayoti, tuyg'ularining evolyutsiyasi, vaqtning oqimi bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun fasllar zamonaviy she'riyatda ruhiy vaqtning poetik modeli sifatida ko'riladi va peyzaj

⁴² John Barrell. The Idea of Landscape and the Sense of Place, 1730-1840: An Approach to the Poetry of John Clare. – Cambridge University Press, 1972. – 244 p.

⁴³ Deane Cecil Victor. Aspects of eighteenth century nature poetry. – London: Cass, 1967. – 146 p.

(tabiat manzarasi)ni aks ettiradi. Shu bilan birga, peyzaj tasviri ko‘p hollarda metaforik tuzilmani tashkil etadi. Bu yerda tabiat unsurlari (quyosh, yomg‘ir, barg, qor, shamol) mustaqil obraz sifatida emas, balki ruhiy voqelikni kodlovchi belgilar sifatida ishtirok etadi. Shuning uchun zamonaviy lirikaning peyzaj tizimi, aslida, inson qalbining dinamik manzarasidir. Bu davr she‘riyatida tabiatni ifodalash ekzistensial xususiyat kasb etadi: shoir tabiatni ko‘rmaydi, balki “his qiladi”; peyzaj unsurlari esa dual tabiati bilan ajralib turadi: ular bir tomondan tashqi manzara (ko‘rish, eshitish, sezish) tasviri bo‘lsa, ikkinchi tomondan ichki holatning semantik kodlaridir. Fasllarning dual semantik tizimi zamonaviy adabiyotda tabiat va ruhiyat birligining falsafiy modelini yaratadi. Har bir fasl – inson kechinmalarining ma‘lum pallasi, ruhiy evolyutsiyaning poetik bosqichi sifatida qaraladi. Bu bo‘limda tadqiqotda qilingan tahlillar mazmunini quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:

Fasl	Shoir (Ijodkor)	She‘r nomi/Bosh misra	Ramziy-timsoliy ma‘no va tahliliy yondashuv
Bahor	Cho‘lpon	“Sharq qizi”, “Ko‘klam qayg‘usi”, “Oppoq oy”, “Bahor keldi”, “Ko‘klam keladir!”, “Yana ko‘klam”, “Ko‘klam yomg‘iri”, “Ko‘klamdan xabar”, “Bahorni sog‘indim...”, “Bu o‘lkaning ko‘klami”, “Tabiat kitobidan”, “O‘lkamizda bahor” kabi she‘rlari va “Bahor avvallari” nomli mansurasi	Ijtimoiy-ramziy peyzaj: istibdod yakuni, yurt ozodligi, erklikka intiqlik. Bahor – ozodlik timsoli.
	Hamid Olimjon	“Ko‘klam” (to‘plam), “Bahor”, “Bahorga yetganda”, “Har yurakning bir bahori bor”, “O‘zbekiston” kabi she‘rlari	Hayotiy-optimistik peyzaj: Inson ruhiyatining uyg‘onishi, Yoshlik, Muhabbat, Mehnat va Umid fasli.
	Oybek	“So‘lg‘un chechak” (satr: “Shoir istar mangu bahor”), “O‘zbek qiziga”, “O‘zbek eli”, “Yana bahor keldi”, “Ko‘klam hislari”, “Bahorda”, “Keldi yana bahor”, “Boychechak”, “Og‘ochliklarda”, “Bahor qo‘shiqlari”, “Ko‘klam taronalari”, “Erta bahor”, “Bahor yomg‘iri” singari qator she‘rlari	Falsafiy/Ramziy peyzaj: “Mangu bahor” – zavol bilmas umr/yoshlik. Bahor – Erklik timsoli.
	Zulfiya	“Aziz tuyg‘ular” (turkum), “Sog‘inib”, “Yana bugun bahorga zorman”, “Bahor keldi seni so‘roqlab”, “O‘rik gullaganda”, “O‘riklar gullar...”, “Bahor”, “Majnuntol”, “Bog‘lar qiyg‘os gulda”, “Demak, bahor keldi”, “Keldi bahor”, “Na go‘zal damlar bu”, “Salom, tansiq bahor”, “Kel, bahor”, “Kamalak” singari she‘rlari	Ruhiy-tematik peyzaj: hayotga cheksiz mehr, fursat g‘animatligi, mehnat va Vatan muhabbati timsoli.
	Abdulla Oripov	“Sen bahorni sog‘inmadingmi”, “Ko‘pdan kutgan edim...”, “Bahor shamoli”, “Bahor”, “Bahor kunlarida”, “Keldim”, “Bahor nashidasi”, “Bahor senikidir”, “Bahor xosiyati”, “Bahor ayyomi”, “Navro‘z qutlovi”, “Ibtido”, “Binafsha diyori”, “Bahor kelayotir”, “Navro‘z”	Psixologik/ruhiy peyzaj: hissiy uyg‘onish metaforasi, ruhiy tozalanish. Bahor – ichki fasl.

Fasl	Shoir (Ijodkor)	She'r nomi/Bosh misra	Ramziy-timsoliy ma'no va tahliliy yondashuv
	Erkin Vohidov	“Bahor mustahzodi”, “Bahor” (satr: “Sahrolar ko‘ksiga taqdi qizg‘aldoq”)	Estetik peyzaj: ko‘klam kelishining yorqin, jonli ifodasi.
	Muhamm ad Yusuf	“Ko‘klamoyim: (satr: “Boychechakka borar yo‘llar ochilishi”)	Ramziy peyzaj: bahorning tashrifini boychechak orqali ifodalash.
Yoz	Abdulla Oripov	“Saraton”	Ekzistensial/An’anaviy peyzaj: Turkiston yozining avj pallasi, mehnat va vatanga muhabbat tuyg‘usi.
	Usmon Azim	“Saraton”, “Yozgi bog‘”	Antitezali/Ruhiy peyzaj: ëz – tush, caraton – ketmon chopuvchi mehnatkash ruh. Ichki harorat (otash) va tashqi salqinlikka intilish ziddiyati.
Kuz	Cho‘lpon	“Kuz”, “Xazon”, “Kuz yomg‘iri”, “Kuz guliga”	Ijtimoiy-falsafiy peyzaj: istibdodga isyon.
	Oybek	“Onamning mozorida” (satr: “Yuzlarim kuzgi yaproq”)	Psixologik peyzaj: kuz – onadan ayrilgan inson iztiroblarining aksi, insoniy dardlar.
	Zulfiya	“Oltin kuz”	Ijtimoiy-optimistik peyzaj: kuzning rangin manzarasi, dehqon va ayollar mehnatini ulug‘lash.
	Abdulla Oripov	“Kuz xayollari”, “Kuzak shamollari”, “Onamga xat”, “O‘zbekistonda kuz”	Falsafiy-metaforik peyzaj: kuz – keksa cholga qiyos, inson umrining o‘tkinchiligi, sog‘inch. Kuz – so‘ngan yurak. Ijtimoiy mavzular
	Rauf Parfi	“Kuzgi bog‘lar shivirlashar jim”, “Ona Turkiston” (satr: “Umr deganlari o‘tmakda shoshqin / Tilla barglarini elab yo‘limga...”)	Metafizik peyzaj: hayot, muhabbat va iztirobning yakuniy bosqichi. Kuz – umrning so‘nggi bekatiga ishora (xronik birlik).
	Muhamm ad Yusuf	“Singlimga xat” (xat – ona – kuz – singil) Ayvonda, xirmonda, Andijon tomonda / Kuz – meni sog‘inib sarg‘aygan onam – / Yig‘laydi, bu yil ham kelmadi bolam	Lokal/Psixologik peyzaj: kuz – Ona sog‘inchi bilan sarg‘aygan inson timsoli.
Qish	Cho‘lpon	“Yana qor”, “Qish kechalari”, “Qish oldida”, “Qor”, “Bu yerning qishi” kabi she‘rlari	Xronotopik/Ijtimoiy peyzaj: Qishning kelishi – tabiiy muvozanat. baxtiyor bolalik va yo‘qsil-yetim bolalar taqdirining ziddiyatli tasviri.
	Hamid Olimjon	“Qish ko‘chasidan”, “Qish”	Estetik/obyektiv peyzaj: Qishning oppoq, jim manzarasi lirik qahramonning ko‘tarinki ruhiyati, sevinchi bilan uyg‘unligi.
	Oybek	“Qish ko‘rinishlari”, “Bizning qish”, “Qish kuylari”, “Birinchi qor”, “Qish, dutor, chol”, “Qish”, “Qish kechasi”	Ruhiy uyg‘unlik: Qishning sovuqligi va quyoshning so‘lg‘in kulishi orqali lirik qahramon ruhiyatining uyg‘un tasviri.
	Rauf Parfi	“Eslaysanmi, izg‘irin kecha”	Xotiraviy/Subektiv peyzaj: qish – xotira vositasida zamon va makonni birlashtirish.
	Usmon Azim	“Chegara yo‘q qish bilan kuzda...”	Metafizik peyzaj: qish – mavjudlikdan ruhiyatga o‘tish pallasi, ichki sukut orqali anglash fasli.

2. *Kun va tun dialektik birligining badiiy manzarasi.* Tun va kun, kecha va kunduz, layl-u nahor, shom-u sahar juft holatda kelib mumtoz va yangi o'zbek adabiyotida tazod san'atini yuzaga keltirgan. Bu kabi ifodalar she'riyatda xronotopning bir qismi bo'lib, vaqtga nisbatan ishlatiladi va uzluksizlikni ifodalaydi. Mumtoz adabiyotda *g'am shomi, shabi hijron, hijron shomi, firoq tuni, hijron kechasi, furqat tunlari, firoq tuni* singari istiora va tashbehlar uchraydi. Ma'lumki, mumtoz shoirlar ijodida ilohiy ishq mavzusi alohida o'rin tutadi. Ishqi ilohiyga talabgor oshiq uchun eng maqbul payt esa bu tundur. Tunning qoraligi va uzunligi – oshiq ro'zg'orining Ma'shuq hajrida qoraligi, uning ishqida shom-u sahar giryonligi, oh-u nola chekishi, Uning vasliga intilishiga mengzaladi. Tun – ibodat payti, oshiqning Ma'shuqqa dard-u hasrati, umidlarini izhor etish pallasi, tun – sokinlik, tun – noma'lumlik, tun – xavf-xatar, tun – sehr, mo'jizaviylik, insonning o'y-xayollari bilan yolg'iz qolishidir. Bu tasvirlar o'z o'rnida tazod san'atini hosil qilib, badiiylikni oshiradi: *Tun-kechalar dod aylasam, har dam seni yod aylasam, //Ishqingda faryod aylasam, devona qildi ishq meni. //Shom-u sahar giryon bo'lay, yo'lungda sargardon bo'lay, //Oxir senga qurbon bo'lay, devona qildi ishq meni*⁴⁴. Mashrab qalamiga mansub quyidagi misralarda esa islomiy vaqt talqini berilgan. Ma'lumki, "Vash-shamsi" hamda "Vaz-zuho" Qur'oni karim oyatining dastlabki so'zlari bo'lib, bu yerda quyosh chiqishi, kun yoyilishi oshiq lirik kechinmalari bilan uyg'unlashtirilgan. Qur'oni karimda Alloh taoloning asr (Val asri), quyosh (Vash shamsi), kecha (Val layli), choshgoh (Vaz zuho) kabi vaqt birliklari bilan ichgan qasami bor. Shoir "Laylivash" va "layl-u nahor" birikmalarida qo'llangan "layl" so'zi orqali tajnis, Qur'oni karim suralariga ishora orqali esa talmeh san'atining go'zal namunalarini yaratgan: *Dilbar ko'yida vashshamsi vazshuho o'quy, //Maqbul bo'lsa hamdinga lahni ulo o'quy. //Majnunsifat firoq dashtida zor yig'ladim, //Dard-u g'aming, laylivashim, layl-u nahor o'quy*⁴⁵.

Muqimiy ijodida tasviriylilik va obrazlilik, ijodkorning poetik maqsadi "subhi vasl", "furqat shomi", "firoq shomi", "shafaq osor", "shomi hijron", "qora tun" kabi poetizmlari orqali yuzaga chiqadi: *Subhi vaslim furqating shomi bilan topdi zavol, //Qon to'lib ko'zga, shafaq osordurman sog'inib*⁴⁶. Adabiyotshunos olim N.Komilov ta'kidlaganidek, tun – asl ma'nosidan tashqari, olami imkon – borliq, g'ayb sirru asrorini, jabarrut olami (iloh va farishtalar orasidagi olam)ni ham anglatadi⁴⁷. Tun Muqimiy nazdida yomonliklar yuz beradigan payt sifatida talqin etilgan. Tun va shabparak (ko'rshapalak) obrazlari vositasida shoir asli bad bo'lgan kishilarga yaxshilik, yorug'lik shart emasligini uqtiradi.

Yangi o'zbek she'riyatida Zulfiya turmushdagi mashaqqatlarga qaramay, she'rlarida hayotni, ezgulikni, insoniy qadriyatlarni kuyladi. Uning lirikasida tun – hijron, iztirob, ruhiy og'irlik ramzi; kun – hayotbaxsh yorug'lik va baxt timsoli; tong esa – yangi hayot va ijodiy ilhom boshlanishi sifatida gavdalanadi: 1) tun va

⁴⁴ Mashrab. Mexribonim kайдасан. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б. 58.

⁴⁵ Mashrab. Mexribonim kайдасан. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б. 65.

⁴⁶ Муқимий. Боғ аро. Шеърлар. – Т.: Akademnashr, 2010. – В. 11.

⁴⁷URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/najmiddin-komilov> (murojaat qilingan sana:19.05.2025)

kun qarama-qarshiligi va hijron: *Ikki sevgi ikkiga yorildimi – bas, / – chiroq so‘nishi, tunning kirishi.* 2) *tong – muhabbat va umid manzili: Yigit sevgi tongini kutar, / Qiz ko‘ziday quyuladi tun.*

Usmon Azim she‘riyatida kun va tun oppozitsiyasi o‘quvchini falsafiy-badiiy mushohadalarga chorlaydi. Shoir tunni ko‘pincha qalb qorong‘iliklari, iztirob va mavhumliklar timsolida, kunduzi esa yorug‘lik, hayot va hissiy uyg‘onish belgisi sifatida ifodalaydi: *Kechirgin... Tun qoramas – men qoraman.*

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida peyzajning tadrijiy belgilari”** deb nomlangan. Uning 1-fasli *“Yangilanayotgan tafakkur va peyzaj lirikasi”* deb nomlangan. Unda o‘zbek modern she‘riyatida peyzajning o‘ziga xosligi masalasi tadqiq qilingan. Modern she‘riyatda, xususan, unda borliq manzarasini badiiy qayta yaratish, poetik peyzajni hosil qilishda quyidagi jihatlarni alohida ko‘rsatish lozim: 1. Ramziylik: bunda an‘anaviy ramzlarni yangi mazmun bilan to‘ldirish ham kuzatiladi. 2. Ichki landshaft (ruhiy manzara): she‘rlardagi peyzaj elementlari tashqi olamni emas, balki shoirning subyektiv kechinmalarini ifodalaydi, tuyg‘ular moddiylashtiriladi. 3. Parchalanish (fragmentarlik) va ko‘p qirralilik: peyzaj, manzara to‘liq, keng va mufassil emas, balki uzuq-yuluq, alohida detallar orqali aks etadi. Fragmentar tasvirlar lirik qahramonning parchalangan ongini va xayol dunyosini ifodalaydi. 4. An‘anaviy badiiy qadriyatlarning yangicha mazmun kasb etishi. 5. Individualizm va yolg‘izlik: modernistik peyzajda individualizm va yolg‘izlik holati markaziy o‘rinni egallaydi. Lirik qahramon tabiatda ham, jamiyatda ham o‘zini yolg‘iz yoki anglanmagan deb his qiladi. 6. Ekzistensial tashvish va ma‘no izlash: modern she‘riyatga xos peyzajda hayotning ma‘nosini izlash va egzistensial mavjudlik muammolari aks etadi. 7. Absurdlik va paradokslilik: odatdagi hayot tartibini mantiqsiz yoki teskari tasvirlash.

Modernist shoirlar tabiat manzaralariga ichki kechinmalarining ko‘zgusi sifatida qarashadi. Natijada, ular peyzajni obyektiv go‘zallikni ifodalashdan ko‘ra, insonning ichki kechinmalari, falsafiy mulohazalari va ruhiy iztiroblari aks etgan subyektiv peyzaj, ramziy idrok makoni yoki “ruhiy landshaft”ga aylantirishgan. Bu yangi tafakkur natijasida tabiat manzaralari o‘zining realistik ko‘rinishini yo‘qotib, ramziylik, metafora va subyektivizm vositasiga aylandi. O‘zbek modernist shoirlari safiga “Bahrom Ro‘zimuhammad, Tursun Ali, Faxriyor, Aziz Said, Shermurod Subhon, Go‘zal Begim”⁴⁸ kabilarni, shuningdek, Abduvali Qutbiddin, Jontemir (Jontemir Toshtemirov), Tillaniso (Tillaniso Eshboyeva) singari (Z.S) yangicha qarashlar asosida ijod qilayotgan shoirlarni kiritish mumkin. Jumladan, Abduvali Qutbiddinning quyidagi she‘rida sahro tasviri va ruhiy taxayyul uyg‘unligini ko‘rish mumkin. Shoir sahro tasvirini berishda sarob, saksovul, qum, Qays, it, karvon, qashqir singari sahroga yondosh badiiy detall va obrazlarni keltiradi: *Ne deyin, sahroda dardkashim sarob, // Sir aytarim saksovul, ne deyin. // Kundan-kun ahvolim xarobdan-xarob, // Ichdim g‘am mayin. Voyladim, bir ohu yaqin kelmadi, // Qumga urdim yuzim, u mendan bezor, Biror it meni Qays deb*

⁴⁸ Ulug‘bek Hamdam. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – T.: Akademnashr, 2020. – B. 40.

bilmadi, // *Tan-u jon ozor...*//*Ko‘p kezdim, ko‘rmadim birorta karvon,*//*Bilmadim qayonda mag‘rib-u mashriq.*//*Mashaqqat sohibi, arkonim armon, / Amirim qashqir...*//*Hukmi ravonimga bo‘ysunmas taqdir, / Endi yo‘l birgina ruhlar ko‘shkiga.*//*Tinch komga men qanday tushaman, axir, / Ishqiga to‘ymadim. / Ishqiga*⁴⁹. Shoir sahro tasviri (manzara, peyzaj) orqali inson ruhiyati va xayol kengliklarini aks ettiradi. Bunda peyzaj vositasida she‘rning modernistik jihatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Birinchidan, she‘rda individualizm va yolg‘izlik holati tasvirlanadi. Lirik qahramon atrof-muhit va borliqdan (*ohu, it, karvon* obrazlari misolida) uzilib qolgan. “*Kundan-kun ahvolim xarobdan-xarob*” misrasi ruhiy parokandalikni kuchaytiradi. Ikkinchidan, she‘rdagi an‘anaviy badiiy qadriyatlarning yangicha mazmun kasb etishi ham diqqatga sazovordir. Mumtoz she‘riyatdagi ilohiy ishq Qays, it, sahro timsollari vositasida yangicha talqin qilinadi: “*Biror it meni Qays deb bilmadi*” misrasi an‘anaviy obrazlarning yangi badiiy tafakkurdagi evrilishini ifodalaydi. Ushbu fikrni ikki xil talqin qilish mumkin: 1. Mumtoz adabiyotda Layli va Majnun afsonasi ilohiy ishqning mukammal ramzi hisoblanadi. Majnun (Qays) o‘zining Layliga bo‘lgan sof va cheksiz sevgisi tufayli odamzod dunyosidan uzoqlashib, tabiat va jonzotlar olami bilan ruhoniylashtiriladi, borliq bilan uyg‘unlashadi. Hatto vahshiy hayvonlar ham unga hamroh bo‘lgan. Bu holat uning ishq yo‘lida oliy darajaga yetganligining belgisi edi. Abduvali Qutbiddin an‘anaviy ramzni butunlay inkor qiladi. Lirik qahramon o‘zini Majnunga qiyoslasa-da, “biror it” ham uni tanimaydi. Bu yerda it obrazi ruhan yaqinlik va ilohiy ishqning tan olinishi ramzi bo‘lib, uning befarqligi esa zamonaviy insonning ilohiy ishqdan, sof tuyg‘ulardan va an‘anaviy ma‘naviy qadriyatlardan uzilib qolganini ko‘rsatadi. 2. Boshqa nuqtayi nazardan qaraganda, “*Biror it meni Qays deb bilmadi*” misrasi lirik qahramonning o‘zini ilohiy ishq maqomiga noloyiq deb bilishini ko‘rsatadi. U ishqqa intiladi, ammo ishq, sadoqati Majnunning darajasidan ancha past ekanligini his qiladi. Itning uni Qays deb tan olmasligi bu lirik “men”ning o‘z-o‘ziga nisbatan shafqatsiz bahosidir. Bu talqin modern she‘riyatga xos bo‘lgan subyektivizm va psixologizm tamoyillariga asoslanadi. Shoir tashqi dunyo (it, sahro) orqali lirik qahramonning o‘z-o‘zini anglash jarayonidagi murakkab ziddiyatlarini aks ettiradi. Bu modernizm she‘riyatida an‘anaviy ilohiy ishq tushunchasiga yangicha mazmun yuklaganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, fikrlar talqinida ko‘p qirralilik polifoniklik kasb etishini isbotlaydi.

Faxriyor ijodida tabiat manzaralari, peyzaj yangi badiiy mazmun kasb etadi. Bu borada shoirning “Tonggi registon” she‘ri qiqqatni tortadi: *Azon aytar muazzin minorlar. // Falon yilki //Karvonsiz saroylar va xonaqohlar – // Bari-bir boyqushning mulki./...Kimsasiz shaharda // Yulduzlarga beradi zahar.*//*Kechani esa u// Quduqqa tashlar.*//*Keyin uxlayotgan raiyat ustidan // Hokimiyat yurgiza boshlar...*//*Tong otadi Registon uzra,*// *Gumbazlarga chiqadi osmon.*//*Yana do‘st bo‘ladi tungi raqiblar, // Gulga aylanadi yana Yosuman.*//*Yana bir kechani tonglar*

⁴⁹ Абдували Қутбиддин. Хаёл кечаси. – Т.: Ёзувчи, 1994. – Б. 5.

otadi...⁵⁰ Ushbu she'rda kimsasiz qolgan obidalar tasvirida yolg'izlik motivining yashirilganini kuzatish mumkin. Bu sahnada shunchaki yorishayotgan tong manzarasi va u ta'sir etayotgan shoir qalbi yakkahokimlik qiladi. Muazzin minorlar azon aytib tursa-da, ushbu muqaddas maskanlar "falon" yillardan buyon insonga emas, balki boyqushlarga oshiyon bo'lganligi tasvirida shoir fojiali moziyga ishora qiladi. Ayniqsa, Samarqandda markazlashgan Amir Temur davlatining parokandalikka yuz tutishi va bu jarayonning Ulug'bek va Abdullatif fojeasi bilan cho'qqisiga yetishi, mazkur yolg'izlik motivining tarixiy-falsafiy asosini tashkil etadi. Boyqush kabi pisib yurgan davlat boshqaruvidagi vazir-u vuzarolarning o'z yo'sinlarida ish tutishlari va Abdullatifni yo'ldan og'dirishlari, otasiga qarshi qayrashlari oxiri Ulug'bekning boshini yetadi. Bu ular uchun ayni muddao edi. Ulug'bek o'ldirilishiga guvoh bo'lgan yolg'iz kechaning quduqqa tashlanishi shoirning o'ziga xos topilmasidir. Kecha vositasida ham muhitga, ham hodisaga ishora qilish, bundan tashqari, lirik qahramonning qoron'g'u ko'ngil ifodalarini ochib berish uchun modern tasvir jozibasi muhim rol o'ynaydi. Kecha zabt etilgach, uxlayotgan raiyat ustidan boyqushlarning hukmronligi o'rnatilishida ham ramziylik mavjud. Bu jamiyatdagi ma'naviy uyg'oqlikning yo'qligini anglatadi.

An'anaviy she'riyatda o'quvchi shoir tuyg'ularining pafosli ifodasida unga eshlik qilsa, modern she'riyat bu tamoyilda shoirdan o'quvchini ustun qilib qo'yadi. Ya'ni endi tasvirda shoir kayfiyati emas, o'quvchi pafoslari ahamiyatliroq. Shu jihatdan she'r g'oyasi avval shoirdan o'quvchiga yetib borgan. Modern kayfiyat esa bu qoidani chilparchin qiladi. Mazmun bahor havosidek o'zgaruvchan. O'quvchining ongida qaysi fasl bo'lsa o'sha hukmronlik qiladi. G'oyaviy mazmuni o'quvchi o'z ongida mustaqil harakatlantiradi. Ya'ni lirik kayfiyat chizig'i quyidagicha namoyon bo'ladi:



Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida avangard uslubning yorqin ko'rinishi Go'zal Begim ijodida o'z ifodasini topdi. Shoira she'riyatida inson vujudi va tabiat birlashib ketganday go'yo. Yolg'iz ayolning, kuchli ayolning his-tuyg'ulari doim tabiatdan kuch va daraxtlardan mag'rurlik olishni istaydi. *Umr juda uzuuun//uzun ko'ylakli qizning etaklariday//hilpiraydi faqat yurganda// daraxtlarga tushuntirmoqchi bo'ladi//tabiatning lirik stixiyasini*⁵¹. Shoira tasvirni shunchalar tiniq va jonli chizadiki, misralar ichida harakatlanmaslikning iloji yo'q. Yolg'izlik motivini ifodalashda bunday obrazdan foydalanish modern she'riyatda an'anaga aylangan desak ham bo'ladi: *Yuraging ilma-teshik bo'lib ketsa //shippakday sudrasang yolg'izlikni//qabriston eng go'zal shaharga aylansa//uyingda seni hech kim kutmasa*. Yolg'izlikni shippakday sudrash holatida, ya'ni u bilan birga yashaganda ado bo'luvchi qalb tasvirini ko'rish mumkin. Bu o'lib borayotgan qalb esa qabristondan makon topadi. Aslida bu uning uyi timsolidir.

⁵⁰ Фахриёр. Дарднинг шакли. Шеърлар. – Т.: Ёзувчи, 1997. – Б. 2.

⁵¹ Go'zal Begimning she'rlari <https://raufparfi.uz/archives/491> saytidan olindi.

Tillaniso Eshboyeva va Jontemir kabilar ijodida peyzaj, borliq manzarasiga aloqador obraz va detallar she'riyatda o'lmas qadriyat sifatida kunimizga qadar ham yashab kelayotganligi ifoda etilgan. Shoiraning epifaniyalarida⁵² badiiy manzaraning o'ziga xosligi kuzatiladi: *O'zingni cho'ktirmoq niyati bilan kelsang // O'n kun avval//Suyganing bilan kelgan// Anhor bo'yiga//Anhor ko'prigida turib// Qarasang osmonga//Va pastga – oqar suvga.// U yondan bu yonga kechsa nigohdan//Manzaralar, // Falsafalar, Xotiralar... // Tinglasang yaproqlarning yashil shivrini, //Titrasi yaproqlar kelajak xabariday, // Titrasi yaratgandan bir xabar kabi.//Bosh ustingda charx ura qushlar, // Bosh ustingda kulrang cheksizlik*⁵³. Ko'rinadiki, bunda peyzaj oddiygina tabiat manzarasidan ko'ra chuqurroq ma'noga ega bo'lgan, asar g'oyasini ifodalashga xizmat qiladigan peyzajdir. She'rdagi peyzaj detallarini quyidagicha tasniflab tahlil qilish maqsadga muvofiq: 1. *Anhor bo'yi va Anhor ko'prigi*: asosiy voqea joyi, qahramonning o'ylariga shohidlik qiluvchi manzaralar. Bu joy kompozitsion vazifaga xoslangan peyzajga yaxshi misol bo'lib, lirik sujetning tarkibiy qismi hisoblanadi. 2. *Osmon*: ramziy ma'noda lirik "men"ning yuqoriga, ma'naviy olamga, cheksizlikka boqishi, savollariga javob izlashi. 3. *Oqar suv*: hayotning o'tkinchiligi, vaqtning davomiyligi va o'limning timsoli. 4. *Yaproqlarning shiviri*: lirik qahramonga tabiatning "kelajak xabariday" yoki "yaratgandan bir xabar kabi" umr davomi haqida mujda yetkaziladi. Uning yashilligida ijobiy mazmun va hayotga qaytishga ishora mujassam. 5. *Qushlar*: bu obrazning lirik subyektning boshi uzra charx urishi manzarasi erk va yuksaklikka intilishning ramzi sifatida namoyon bo'ladi. 6. *Kulrang cheksizlik va yorug' cheksizlik*: Bunda osmon manzarasi orqali qahramonning o'y-xayollari, ruhiy holati ifodalangan.

Mazkur bobning ikkinchi faslida "*Bolalar she'riyatida peyzajning badiiy-estetik vazifalari*" masalasi yoritilgan. Bolalar she'riyatida peyzajning o'rnini quyidagicha tasniflab o'rganish mumkin: 1. Peyzajning bilish vazifasi asosidagi tasnif: a) *tabiat hodisalarini tanitish*; b) *o'simlik va hayvonot dunyosini kashf qilish*; c) *ranglar va shakllar dunyosini anglash*; d) *fasllar almashinuvini tushunish*.

2. Peyzajning hissiy-estetik vazifasi yoki nafosat tarbiyasi asosidagi tasnif. Unda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish kerak: a) *tabiatga muhabbat uyg'otish*; b) *go'zallikni his etish va qadrlash*; d) *tasavvur va ijodkorlikni rag'batlantirish*.

3. Peyzajning tarbiyaviy-axloqiy funksiyasi asosidagi tasnif. Bu tasnifda peyzaj – she'rlarda tabiat manzarasi – orqali bolalarga qanday tarbiyaviy g'oyalar va axloqiy qadriyatlar singdirilishi tahlil qilinadi. Ularni quyidagicha guruhlab o'rganish mumkin: a) *vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish*; b) *ekologik ongni rivojlantirish*; c) *mehnatsevarlik va sabr-toqatli bo'lishga undash*; d) *insoniy*

⁵² Epifaniya – yunoncha so'z bo'lib, in'ikos, ilohiy yoki favqulodiy qudratga ega kuchning g'oyibdan namoyon bo'lishini anglatadi. Shuningdek, G'arb adabiyotida epifaniyani biror buyum (hodisa) ta'sirida o'sha buyum yoki hodisaning asl mohiyatini anglash istagida inson ong-u shuurida paydo bo'ladigan fikr oqimi deb bilishadi. Epifaniya haqida gapirganda, albatta, eng avvalo, Jeyms Joys nomi, aniqrog'i, uning ijodida muhim o'rin tutgan "kundalik"namo yozuvlari tilga olinadi. Manba: <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/imant-ziyedonis-epifaniyalar.html> (murojaat qilingan sana:15.08.2025)

⁵³ Tillaniso. Qon: she'rlar. – T.: Akademnashr, 2022. – B. 92.

fazilatlarini shakllantirish; e) *optimistik dunyoqarashni rivojlantirish* yoki *kelajakka umid bilan qarashni shakllantirish*. Yuqoridagi tasniflarga tayangan holda, o'zbek bolalar she'riyatidagi peyzaj tahlil etilgan. Jumladan, Kavsar Turdiyevaning "Qaydan olgan buncha rang?"⁵⁴ she'ri bolalar she'riyatida peyzajning nafaqat *emotsional-estetik* vazifasini, balki *bilish* (kognitiv) funksiyasini, xususan, ranglar va shakllar dunyosini anglashga yordam berishini yorqin namoyish etishi bilan ahamiyatli. Ushbu she'r bolalarda estetik zavq uyg'otish bilan birga, ularning ranglar olami haqidagi bilimlarini oshirish va tabiatning go'zalligini anglab yetishga undashga qaratilgan: *Kamalakka bir qarang, / Qaydan olgan buncha rang? / Yashil rangni o'tloqdan, / Jigarrangni tuproqdan. / Ko'm-ko'k rangni osmondan, / Sariq rangni somondan. / Qorani qalamqoshdan, / Qizil rangni quyoshdan. / Shu gap yolg'on yoki rost, / Qaysi rang nimaga xos?* She'r avvalidagi "Kamalakka bir qarang, / Qaydan olgan buncha rang?" misralari bolalarni kuzatuvchanlikka chorlaydi. Kamalakning go'zalligi, ranglarning uyg'unligi bolalarda estetik zavq uyg'otadi.

Peyzajning *hissiy-estetik* vazifasi tabiatga muhabbat uyg'otishdir. Peyzaj tasvirlari orqali bolalarda tabiatga nisbatan mehr, hurmat va mas'uliyat hissini shakllantirish mumkin. Masalan, Qambar Otaning "Yaproqlar" she'rida oddiy bir yaproqning ham muhim o'rni borligi tasvirlanadi. She'rdagi yashil rang bilan bog'liq peyzaj bolalarda tabiatga nisbatan estetik zavqni shakllantirishga xizmat qiladi: *Zumrad, yashil tovlanib / Shovullaydi bog'larda. / Soyasiga chorlaydi / Kun qizigan chog'larda*⁵⁵. Tursunboy Adashboyevning "Kun botishi" she'ri peyzaj orqali bolaning boy tasavvurini ko'rsatadi. She'rdagi lirik qahramonning quyosh botishini oddiy hodisa sifatida emas, balki jonli bir obraz – dumalab, tog' boshiga yetib, yiqilib, burni qonab ketgan bola kabi tasvirlashi bunga misol bo'la oladi: *Kun botishi Kozimni / Juda hayron etibdi. / – Dada, quyosh dumalab, / Tog' boshiga yetibdi. // Yiqilibdi, shekilli, / Burni qonab ketibdi...*⁵⁶ Bu o'xshatishlar bolaning atrof-muhitni o'z tasavvur olami orqali idrok etishini, jonlantirishini ko'rsatadi. Shoir bu uslub orqali bolalarni o'ziga xos dunyo yaratishga va ijodiy fikrlashga undaydi. Natijada, ular manzaraga yangi, o'zgacha nazar bilan qarashni o'rganishadi.

Tadqiqotning to'rtinchi bobi "**Peyzaj lirikasida tabiat va inson munosabatlarining badiiy talqini**" deb nomlangan. Uning 1-faslida "*Tabiat manzarasi orqali lirik qahramon ruhiyati va ijtimoiy-siyosiy mavzularning ifodalanishi*" masalasi tekshirilgan. Adabiyot inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning badiiy in'ikosidir. Ayniqsa, tabiat va borliq manzarasi (peyzaj) berilgan she'rlarda bu uchlik bir butun falsafiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. D.Quronov ta'kidlaganidek, adabiyotning predmeti inson⁵⁷ bo'lsa-da, uni jamiyat va tabiatdan ajratib bo'lmaydi. Shu yondashuv asosida peyzaj lirikasi insonning borliq bilan ruhiy va falsafiy aloqalarini ifoda etishning samarali

⁵⁴ Turdiyeva, Kavsar. Saylanma. – T., 2007. – B. 19.

⁵⁵ Qambar Ota. Quyosh bola oy bola. – T.: O'qituvchi, 2014. – B. 18.

⁵⁶ Adashboyev T. Orzularim – qo'sh qanotim. She'rlar va ertaklar. – T.: Sharq, 2003. – B. 114.

⁵⁷ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari: darslik. – T.: Noshir, 2019. – B. 32.

shakliga aylangan. Shunga asoslanib, peyzajning ikki asosiy funksiyasi aniqlangan: 1) ijtimoiy-siyosiy masalalarni badiiy yoritish, 2) ekologik va falsafiy muammolarni ifodalash. Ma'rifatparvarlik davrida peyzaj lirikasining ijtimoiy mazmuni kuchaydi. Furqat ijodi bunga yorqin misoldir. Shoirning "Bahor ayyomida", "Fasli navbahor", "Bu bahor ayyomi" kabi g'azallarida tabiat manzaralari inson ruhiyatining va jamiyatdagi adolatsizliklarning ramziy ifodasiga aylanadi. "Fasli navbahor o'ldi" g'azalida bahorning jonlanishi bilan birga donolarning g'amda, nodonlarning esa shodlikda yashashi holati o'zaro qarama-qarshi qo'yiladi (*Kuymasun bu savdoda iye uchun dimog'imkim, / Ranj-u g'ussada dono, kechsa shod nodonlar*⁵⁸). Bahor tasviri shu tariqa ijtimoiy norozilik va ma'naviy uyg'onish g'oyasining badiiy vositasiga aylanadi. Furqatda tabiat – inson ruhiyati va jamiyat manzarasining uzviy birligidir.

Abdurauf Fitrat ijodida peyzaj lirikasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni yangilandi. U tabiat manzaralari orqali millat taqdiri, mustamlaka zulmi va ozodlik orzusini ifodaladi. Shoir she'rlarida "bulut", "yel", "tun", "yorug'lik" kabi ramzlar orqali mustamlakachilik zulmi va erkinlik g'oyasi qarama-qarshi qo'yiladi. "Ovunchoq", "O'gut", "Parcha", "Mening kecham" singari she'rlarida qora bulut – istibdod, yel esa ozodlik epkini sifatida talqin qilinadi. Shoirning "Ovunchoq" she'ri quyidagi misralar bilan boshlanadi: *To'sib turgan oydinlikning yo'lini / Shu qop-qora, eski, titrak bulutlar, // Kuchli bir el ko'rgach, turmas yirtilar / Umid kuni sening uchun ham tug'ar. // Qayg'urmagil sira, ey haq tuyg'usi!*⁵⁹ Oydinlik – istiqlool orzusi, yurtning istiqboliga umid sifatida qop-qora bulut ifodasi bilan mazmunan ziddikni yuzaga keltirgan. She'ring nomida ham yorug' kunlardan orzumandlik seziladi.

Rauf Parfi lirikasida tabiat ramzlari inson ruhiyati va ijtimoiy-falsafiy fikrning ifoda maydoniga aylanadi. Shoirning "MANA, CHAQMOQ CHAQDI NOGAHON", "Aleksandr Blok", "Abdurauf Fitrat", "Adashgan ruh" kabi she'rlarida chaqmoq, shamol, to'lqin, bulut obrazlari inson ruhidagi umid va iztirob ziddiyatlarini ifodalaydi. Rauf Parfi poetik olamida tabiat unsurlari ikki yo'nalishda talqin qilinadi: 1. Falsafiy-ruhiy – insonning o'zini anglash, borliq va yo'qlik o'rtasidagi izlanish. 2. Ijtimoiy-ramziy – mustamlaka, istibdod va milliy uyg'onish g'oyalarini ifodalash. Shoir "mudrayotgan tog'lar", "uyqudagi qir", "erk qabri" kabi timsollar orqali millatning uyg'onish zaruriyatini badiiy tarzda yoritgan. Uning she'riyatida peyzaj tasviri inson va jamiyatning falsafiy qiyofasini ochuvchi poetik shaklga aylanadi.

Faxriyorning "Xavotir" she'rida tabiat tasviri globallashuv davrining ma'naviy inqirozi bilan bog'lanadi. "Ketib borayotgan tog'lar karvoni" ifodasi abadiyat timsoli bo'lgan tog'ning harakatga aylanishi orqali qadriyatlar yo'qolishi, avlodlar o'tishi, tarixiy xotiraning uzilishi g'oyasini bildiradi. "Burnidan ip o'tkazilgan tog'lar" esa insoniyatning tashqi kuchlar tomonidan boshqarilayotganini, erkning yo'qotilishini ramziy tarzda aks ettiradi. She'ring

⁵⁸ Furqat. Tanlangan asarlar. – T.: F. Fulom nomiдаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 146.

⁵⁹ Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Т.: Маънавият, 2000. – В. 37.

asosiy ta'sir kuchi uning ramziyligidadir. Unda oddiygina tabiat manzarasi emas, balki chuqur falsafiy va ijtimoiy-siyosiy mazmun ifodalangan. “*Ketib borayotgan tog‘lar karvoni*” satrida tog‘lar o‘zining statik, o‘zgarmas mohiyatini yo‘qotib, harakatdagi karvonga aylanadi. Undagi ramziylikni quyidagi jadval asosida tushuntirish mumkin:

So‘z/Obraz	An‘anaviy ma‘nosi	Ramziy (falsafiy) ma‘nosi
Tog‘lar	Mustahkam, statik, abadiy, o‘zgarmas.	Qadriyatlar, g‘oyalar, ma‘naviyat, ajdodlar merosi, hatto butun boshli avlod.
Karvon	Vaqtincha, harakatlanuvchi, uzoq yo‘l bosuvchi.	O‘zgarish, oqim, vaqt ta’siri, majburiy ko‘chish.
Ketib bormoq	Uzoqlashmoq, yo‘qolmoq.	O‘zgarmoq, eskirmoq, unut bo‘lmoq, zamon oqimida erib bormoq.

Shoir tog‘larni karvon qilib tasvirlash orqali, ular ham abadiy emasligini, vaqt oqimi oldida harakat va unut bo‘lishga mahkumligini ko‘rsatadi. Bizningcha, harakatdagi karvon ifodasini ikki ma’noda izohlash mumkin: 1) ijtimoiy-falsafiy yo‘qotish: biz uchun mustahkam, abadiy va daxlsiz bo‘lib ko‘ringan milliy qadriyatlar, insoniy g‘oyalar, ma‘naviy ustunlar aslida asta-sekin bizdan uzoqlashib, yo‘qolib bormoqda. 2) avlodlar o‘tishi: butun boshli bir avlod (o‘z qarashlari va madaniyati bilan) vaqt sahrosida oldinga siljimoqda, ya’ni o‘tmishga aylanmoqda.

